

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakul'teti Pedagogika – psixologiya yo`nalishi IV-bosqich talabasi Abduvaliyeva Nozimaning “Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyati” nomli bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Hozirgi kunda psixologiya sohasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Psixologlar tomonidan inson ruhiyatini o'rganish borasida olib borilayotgan tadqiqotlarning barchasi jamiyat rivoji va ravnaqi uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha sohalarda demokratik islohatlar davom etayotganligi, fuqoralik jamiyatini rivojlantirilishi, ta'limdagi islohatlar ko'lamining kengayishi, yoshlarning jamiyatimizning jabhalaridagi ishtirokinining faollashuvi bilan bog'liqdir. Ta'limning modernizasiyalashuvi ta'lim muasasalarining taraqqiyoti, talabalarni ma'naviy barkomolligi, yoshlarning ijodiy qobiliyatini yuksaltirish masalalari bilan mushtarakdir. Ushbu jarayonda tarbiyaning barcha imkoniyatlaridan, tarbiya jarayonining samarali uslublaridan foydalanish, tarbiya mazmunini yanada takomillashtirish, nazariy jihatdan boyitish amaliy ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz hozirgi davrda ta'limdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish davrini boshdan kechirmoqda. Bunday davrda bo'lajak pedagoglarning ijodiy barkomolligi va yuksak ijodiy madaniyatini shakllantirish tamoyillarning rivojlanishi ham yoshlarning ijodiy o'sishi va umimiy ilmiy tayyorgarligiga, ularning ijtimoiy gumanitar, pedagogik, mutaxassis fanlarni zamonaviy metodika asosida o'rganishlari muhimdir. Bu holatda birinchi navbatda talabalarning milliy g'oya asoslarini chuqur bilishlari, yoshlar ijodiy mehnati nazariy asosini tashkil qiluvchi manbalarni mustaqil o'zlashtirishlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishlari ahamiyatlidir. Talabalarni barkomol inson sifatida voyaga yetkazishni amalga oshirish, ularni modernizasiyalashayotgan jamiyatda yetuk, ijodiy madaniyati shakllangan mutaxassis sifatida tarbiyalash, insoniylik, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishga asoslangan ta'lim mazmunini tushintirish zaruriyati bilan ham izohlanadi.

Talaba Abduvaliyeva Nozimaning mavzusi ham ana shunday muammoli mavzulardan biri hisoblanadi. Bitiruv ishi kirish, 2 bob, 6 ta paragraf, tajriba sinov natijalari, xulosa va tavsiyalardan iboratdir. Tadqiqotning kirish qismida muoammoning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, tadqiqotning metodlari va tadqiqot olib borish obektlari belgilab berilgan.

Birinch bobda muoammoning o'rganilishi, talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning nazariy metodologik asoslari, uzluksiz ta'lim tizimining yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi, talaba yoshlar ijtimoiy ruhiyatining psixologik manbalarda o'rganilishi masalalari yoritilgan.

Ikkinchi bob talabalarda ijtimoiy tarbiyani tarkib toptirishda ijtimoiy psixologiya fanining o'rni va ahamiyati, oilaviy muammolarning shaxs ijtimoiy - psixologik hulqiga ta'siri, talabalar tarbiyasi barkamol shaxsni shakllantirishning uzviy qismi sifatida kabi masalalarni o'z ichiga olgan. Tajriba-sinov ishlari Jizzax shahar kasb hunar kollejida amalga oshirildi va tajribada kollej talabalarining ijtimoiy ruhiyati o'rganildi.

Abduvaliyeva Nozima tomonidan berilgan tavsiyalar talaba yoshlar, o'qituvchilar, ota-onalar va kollej psixologlari uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi deb o'ylayman. Bitiruv malakaviy ishini ximoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

kollej direktori

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakul'teti Pedagogika – psixologiya yo`nalishi IV-bosqich talabasi Abduvaliyeva Nozimaning “Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyati” nomli bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Abduvaliyeva Nozimaning tadqiqot ishining dolzarbligi talaba yoshlarning ijtimoiy ruhiyati muommosi bo'lib, talaba yoshlarning ijtimoiy ruhiyatiga ta'sir etuvchi omillar va uni bartaraf etish yo'llarini o'z ichiga oladi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi ana shu muammoni o'rganishga urinishlardan biri hisoblanadi.

Muallif qo'yilgan maqsadga erishishda “Talabalar ruhiyatini sog'lomlashtirish bugungi kun talabi” degan asosiy qoidaga va talaba shaxsni rivojlantirishga va ruhiyatini sog'lomlashtirishga doir muommolarga tayangan holda yondashgan. Ishda ko'rilayotgan tushunchalarning pedagogik psixologik asoslari bayon etilgan. Nazariy qism mazmunli taqdim etilgan muallif o'z ishida psixologiya, pedagogika fanlari bo'yicha asosiy nazariy tayorgarligini, mustaqil ishlash hamda psixologik masalalarni ijodiy hal eta olish ko'nikmalarini namoyon eta olgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyatining o'ziga xos psixologik jihatlari” deb nomlanib, unda talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning nazariy metodologik asoslari, uzluksiz ta'lim tizimining yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi, talaba yoshlar ijtimoiy ruhiyatining psixologik manbalarda o'rganilishi kabi muammolar ko'rib chiqilgan. Mavzuga oid adabiyotlar tahlil etilgan. Tadqiqot ob'yekti etib belgilangan kollej talabalarining ijtimoiy ruhiyati tahlil etilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyatida bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganishning mohiyati” deb nomlanib, unda talabalarda ijtimoiy tarbiyani tarkib toptirishda ijtimoiy psixologiya fanining o'rni va ahamiyati, oilaviy muammolarning shaxs ijtimoiy - psixologik hulqiga ta'siri, talabalar tarbiyasi barkamol shaxsni shakllantirishning uzviy qismi sifatida ekanligi xaqidagi masalalari ko'rib chiqilgan.

Shu bilan birga kollej talabalarining o'ziga xos jihatlari, psixologik xususiyatlari, ularda xarakter xususiyatlarining namoyon bo'lishi va bunday xususiyatlarning ta'lim jarayoniga bevosita ta'siri masalalari yoritib berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan Jizzax shaharidagi kollejlarda o'tkazilgan psixologik tarjiba natijalari muallifga tanlangan mavzuni o'rganish imkonini bergan.

Abduvaliyeva Nozima tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ishi, xususan ishlab chiqilgan, nazariy qism ota – onalar, talabalar, pedagoglar, psixologlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Ish bitiruv malakaviy ishiga qo'yiladigan barcha talablarga to'liq javob beradi.

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi M.Qodirova

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakul'teti Pedagogika – psixologiya yo`nalishi IV-bosqich talabasi Abduvaliyeva Nozimaning “Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyati” nomli bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Psixologiya sohasining vazifasi - barkamol avlod tarbiyasini ta'minlovchi barcha ma'naviy, ruhiy va insoniy munosabatlar mohiyatini tahlil qilish, ularni boshqarishning eng samarali usullarini xayotga tadbqiq etishdir. Bu o'rinda, ayniqsa tafakkurning, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishini, insonning o'ziga va o'zgalarga ta'sir etishining mexanizmlarini o'rganish eng dolzarb masalalardandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “....shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatni modernizasyalash davrida jamiyat a'zolarining o'z salohiyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun ularga birinchi galda teng imkoniyat va erkinlik muhitini, ham qonuniy, ham amaliy shart sharoitlarni yaratib berish zarur”¹ degan fikrlari inson shaxsini yanada shakllantirish talabini qo'yadi. Shaxsni shakllantirish, undagi kamchiliklarni bartaraf etish masalasini psixodiagnostika sohasi o'rganadi. Bola shaxsidagi kamchiliklarni juda erta yoshdan aniqlab, bartaraf etish yo'llarini izlash lozim. Kamchiliklari bartaraf etilsa shaxs sifatida shakllanishida hech qanday muammo bo'lmaydi. Ishimizning maqsadi ham shundan iborat.

Bitiruv malakaviy ishida shaxsning tuzilishi, shaxsning shakllanishi, inson shaxsini taraqqiy ettirish masalalari, shaxs rivojlanishida psixologik jarayonlarning hamda psixologik bilimlarning o'rne kabi masalalar o'rin egallagan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi qilib, bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyatini o'rganish belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi etib, talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning nazariy metodologik asoslari psixologik amaliyot sifatida ilmiy

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият -енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, Б.68.

jihatdan o'rganish, uzluksiz ta'lim tizimining yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoni bilan o'zaro bog'liqligini asoslash, talaba yoshlar ijtimoiy ruhiyatining psixologik manbalarda o'rganilishi tahlili, talabalarda ijtimoiy tarbiyani tarkib toptirishda ijtimoiy psixologiya fanining o'rni va ahamiyatini asoslash, oilaviy muammolarning shaxs ijtimoiy - psixologik hulqiga ta'sirini ochib berish, talabalar tarbiyasi barkamol shaxsni shakllantirishning uzviy qismi ekanligini asoslab berishni o'z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning nazariy metodologik asoslari, uzluksiz ta'lim tizimining yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi, talaba yoshlar ijtimoiy ruhiyatining psixologik manbalarda o'rganilishi yoritilgan.

Ikkinchi bobda talabalarda ijtimoiy tarbiyani tarkib toptirishda ijtimoiy psixologiya fanining o'rni va ahamiyati, oilaviy muammolarning shaxs ijtimoiy - psixologik hulqiga ta'siri, talabalar tarbiyasi barkamol shaxsni shakllantirishning uzviy qismi sifatida kabi masalalar yoritib berilgan. Ushbu bob yuquridagi nazariy bilimni asoslashga qaratilgan. Testlar yordamida talabalar o'rganilgan va taxlil qilingan. Tadqiqot ishini Jizzax shaxridagi kollejlarda olib borilgan. Tadqiqod testlari xulosalangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan tavsiyalar ota-onalar, o'qituvchilar, psixologlar uchun muhim qo'llanma sifatida xizmat qiladi degan umiddamiz. Bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

p.f.n.dots.R.Abdurasulov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI

PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika - psixologiya fakul'teti dekani
v/b _____ dots.R.Abdurasulov
“ _____ ” _____ 2014 y.

**5140800 – Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**BUGUNGI KUN TALABA YOSHLARINING IJTIMOIIY RUHIYATI
mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Abduvaliyeva Nozima

Ilmiy rahbar: kat.o'qit. M.Qodirova

Ishni himoyaga tavsiya etaman kat.o'qit.M.Qodirova

_____ (imzo)

BMI Pedagogika - psixologiya kafedrası
yig'ilishining qarori bilan (Qaror №10, .05.2014y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: p.f.n. I.To'raqulova

_____ (imzo)

JIZZAX - 2014

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I I-Bob. Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyatining BOB. o'ziga xos psixologik jihatlari.....	8
1.1. Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning nazariy metodologik asoslari	8
1.2. Uzlüksiz ta'lim tizimining yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi	21
1.3. Talaba yoshlar ijtimoiy ruhiyatining psixologik manbalarda o'rganilishi.....	35
II Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyatida bo'layotgan BOB. o'zgarishlarni o'rganishning mohiyati	44
2.1. Talabalarda ijtimoiy tarbiyani tarkib toptirishda ijtimoiy psixologiya fanining o'rni va ahamiyati	44
2.2. Oilaviy muammolarning shaxs ijtimoiy - psixologik hulqiga ta'siri	56
2.3. Talabalar tarbiyasi barkamol shaxsni shakllantirishning uzviy qismi sifatida.....	62
UMUMIY XULOSA VA TAKLIFLAR.....	74

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. Hozirgi kunda psixologiya sohasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Psixologlar tomonidan inson ruhiyatini o'rganish borasida olib borilayotgan tadqiqotlarning barchasi jamiyat rivoji va ravnaqi uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha sohalarda demokratik islohatlar davom etayotganligi, fuqoralik jamiyatini rivojlantirilishi, ta'limdagi islohatlar ko'lamining kengayishi, yoshlarning jamiyatimizning jabhalaridagi ishtirokining faollashuvi bilan bog'liqdir. Ta'limning modernizasiyalashuvi ta'lim muasasalarining taraqqiyoti, talabalarni ma'naviy barkomolligi, yoshlarning ijodiy qobiliyatini yuksaltirish masalalari bilan mushtarakdir. Ushbu jarayonda tarbiyaning barcha imkoniyatlaridan, tarbiya jarayonining samarali uslublaridan foydalanish, tarbiya mazmunini yanada takomillashtirish, nazariy jihatdan boyitish amaliy ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz hozirgi davrda ta'limdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish davrini boshdan kechirmoqda. Bunday davrda bo'lajak pedagoglarning ijodiy barkomolligi va yuksak ijodiy madaniyatini shakllantirish tamoyillarning rivojlanishi ham yoshlarning ijodiy o'sishi va umimiy ilmiy tayyorgarligiga, ularning ijtimoiy gumanitar, pedagogik, mutaxassis fanlarni zamonaviy metodika asosida o'rganishlari muhimdir. Bu holatda birinchi navbatda talabalarning milliy g'oya asoslarini chuqur bilishlari, yoshlar ijodiy mehnati nazariy asosini tashkil qiluvchi manbalarni mustaqil o'zlashtirishlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishlari ahamiyatlidir. Talabalarni barkomol inson sifatida voyaga yetkazishni amalga oshirish, ularni modernizasiyalashayotgan jamiyatda yetuk, ijodiy madaniyati shakllangan mutaxassis sifatida tarbiyalash, insoniylik, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishga asoslangan ta'lim mazmunini tushintirish zaruriyati bilan ham izohlanadi.

Inson ruhiyati juda qadimdan faylaufklar, pedagoglar, psixologlar tomonidan o'rganilgan va o'rganilmoqda. Bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Buyuk

mutaffakkirlarimiz tomonidan ham ular yaratgan asarlarda inson ruhiyatiga to'xtalganlar. Inson o'z ruhiyatini boshqarishi o'ziga bog'liqligi, zero ruhiyat inonni ham ijobiy ham salbiy jihatlarini tarbiyalashi masalaida ko'plab ajoyib fikrlarni keltirganlar. Masalan, inson ruhiyati sog'lom bo'lsa, o'zi sog'lom bo'ladi deydi Ibn Sino. Inondagi 90 % kasallik ruhiyatning nosog'lomligidan, ya'ni asab tizimining buzilganidan kelib chiqar ekan. Shunday ekan inson ruhiyatini sog'lomlahtirishni juda kichik yoshdan boshlash kerak. Oiladagi tarbiya bilan singdirilsa keyinchalik katta yoshda ham o'z ruhiyatini bohqara olish kuzatiladi.

Talaba yoshlarning ijtimoiy ruhiyati borasida ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Talabalarda ijtimoiy ruhiyatning sog'lomligi mutaxassislik fanlarni o'zlahtirish uchun juda muhim. Bunda talabalarga o'z psixologik jarayonlarini, holatlarini boshqara olish muhimdir. Bu ulardagi ijodkorlik faoliyatini oshiradi.

Talabalar ijodiy imkoniyatining yuksalishi, ularning jamoat ishlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida faoligini ta'minlashi mumkin. Hozirgi davrda yoshlarning ijodiy qobilyati, madaniyati bevosita ta'lim jarayoni yuksalishi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnining bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Talabalar ijodiy qobilyatini shakllantirish sharoitida tarbiyaning ta'sirchan uslublaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish, uning mazmunini ijtimoiy iqtisodiy islohatlar natijalari bilan boyitish, provard natijada bo'lajak mutaxassislar tarbiyasi ham muhim amaliy rol o'ynaydi.

Ta'lim sohasida ya'ni ta'lim vositalari orqali yoshlar ijodiy qobilyatlarining shakllantirilishi, rivojlantirilishi bevosita yoshlarning umimiy madaniyatini yuksaltirish, yoshlarni ijtimoiy hayotga, yuqori darajadagi axloqiy, mehnat madaniyatiga, vatanparvarlik xislatlariga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalash bilan bog'liqligini ham alohida ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaydiki "Muxtasar qilib aytganda, oxrigi yillarda ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun halqimizning

ma'naviy yuksalishi yo'lida, mustahkam zamin yaratdi, desak hech qachon xato bo'lmaydi,².

Prezidentimizning “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asaridagi ushbu metodologik, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosasi va tarbiya jarayoni uchun muhim bo'lgan ko'rsatmalari ham bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyati xaqida gap borar ekan bunda biz xozirgi kundagi jadal rivojlanishga to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi. Bunday rivojlanish jamiyat negizi bo'lmish shaxslarga ayniqsa yoshlarga har tomonlama o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Hozirda jamiyat bilan hamnafas bo'lib yashash muhim. Bunda yoshlarning har tomonlama ayniqsa ruhiy rivojlanishi muhimdir. Ayniqsa yoshlarning ijtimoiy ruhiyatining sog'lom bo'lishi juda zarur jihatlardan biridir. Ijtimoiy ruhiyat bu – insonning muhitga, atrofga, shaxslarga moslashuvining sog'lom ko'rinishi, ya'ni hech qanday muammolarsiz kelishuv asosida faoliyat olib borishdir. Bu jihat turmush tajribasi bor, ruhiy jihatdan normal rivojlangan, xulqida salbiy jihatlar bo'lmagan insonlarda yaxshi kechadi. Yoshlarda esa ozgina muammolar bilan kechadi. Shunday muammolar bo'lmasligi uchun yoshlarning ijtimoiy ruhiyatini sog'lomlashtirish lozim. Mavzumiz aynan ana shu muammoni yoritishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyatini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti: Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyati ta'lim jarayonidagi muhim islohatlar bilan chambarchas bog'liqligini ilmiy tadqiqi.

Tadqiqotning predmeti: ta'limdagi islohatlar davrida talabalarning vatanparvar, axloqan pok inson sifatida shakllanishi jarayonining ular mustaqil ijodiy mehnati mazmuni bilan mushtarakligi masalalari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi:

² Каримов И.А. Юксак маънавият -енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, Б.64.

- Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning nazariy metodologik asoslari psixologik amaliyot sifatida ilmiy jihatdan o'rganish;
- Uzluksiz ta'lim tizimining yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoni bilan o'zaro bog'liqligini asoslash
- Talaba yoshlar ijtimoiy ruhiyatining psixologik manbalarda o'rganilishi tahlili
- Talabalarda ijtimoiy tarbiyani tarkib toptirishda ijtimoiy psixologiya fanining o'rni va ahamiyatini asoslash
- Oilaviy muammolarning shaxs ijtimoiy - psixologik hulqiga ta'sirini ochib berish
- Talabalar tarbiyasi barkamol shaxsni shakllantirishning uzviy qismi ekanligini asoslab berish.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar mahkamasining pedagogik ta'limga doir qarorlari, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risda»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining nazariy asoslari, milliy pedagogikamiz durdonalari mazmunini mujassamlashtirgan ilmiy manbalar, sharqona ta'lim-tarbiya vositalari va metodlarini o'z ichiga olgan ilmiy monografiyalar tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi mavzuning ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan mustaqil o'rganilganligi, mavzu doirasida ushbu dolzarb psixologik muommoning hozirgi oliy ta'lim talablari asosida tahlil qilinganligi, bitiruv malakaviy ishning xulosa va tavsiyalaridan, muallifning qo'lga kiritgan xulosalaridan pedagoglar, psixologlar tomonidan talabalar, o'quvchilar orasida olib boriladigan tarbiyaviy yo'nalishdagi tadbirlarda, shu jumladan ta'lim o'choqlarida ta'lim va tarbiyaviy ish samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi: bitiruv malakaviy ish muallifi tomonidan pedagogik amaliyot davomida talabalar orasida olib borilgan suhbatlar, tarbiyaviy yo'nalishdagi tadbirlarda foydalanildi. Ish muallifi, ishning xulosalaridan fanlar bo'yicha o'tkazilgan talabalar ilmiy to'garagidagi axborotlarida, mustaqil chiqishlarida ham asosiy manba rolini bajardi.

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, olti paragraf, xulosa, takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

I-Bob. Bugungi kun talaba yoshlarining ishtimoiy ruhiyatining o'ziga xos psixologik jihatlari

1.1. Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning nazariy metodologik asoslari

Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning asosiy maqsadi ijtimoiy muhitga moslashish, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan moddiy, ma'naviy tushunchalarni o'zlashtirish, oilaviy hayotga, mustaqil hayotga tayyorlashdan iboratdir. Bu borada pedagogik va psixologik manbalardan shu nara ma'lumki ushbu yoshda talaba yigit va qizlarda ijtimoiy hayotga bo'lgan qiziqishning ustunligi kuzatiladi. Bunday qiziqish ularni faolligini oshiradi. Bunday faollik natijasida ularda turli tushunchalarning noto'g'ri o'zlashtirilishi kuzatiladi. Natijada hayot xaqidagi tushunchalarning noto'g'ri tushunilishi yoshlar ruhiyatining o'zgarishiga olib keladi. Ruhiyatning salbiy tomonga o'zgarishi o'zaro munosabatlarda kelishmovchiliklar, ijtimoiy muhitga moslasha olmaslikni yuzaga keltiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari talabalarga mutaxassislik fanlarini o'rgatish bilan bir qatorda ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Hayot saboqlarini berish fanlarni o'qitishda ham amalga oshiriladi. Pedagoglar tomonidan beriladigan har qanday bilim tarbiyaga asoslanadi. Beriladigan tarbiyaning mohiyati ham ana shundan iborat.

Bo'lajak pedagoglar kamolatida, barkomol avlod tarbiyasida pedagogika muhim rol o'ynaydi. Pedagogikaning fan sifatida shakllanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat bo'lib, u turli fanlar bilan uyg'un holda qadim-qadim zamonlardan rivojlanib kelgan. Alloh, yeru osmonni, butun borliqni inson uchun yaratib, unga aql gavharini, tafakkur qilish qobiliyatini berdi. O'zining mavjudligi, har bir ishga qodirligini, ilmda tengsizligini, mehr-muruvvatda beqiyosligini bildirdi.

Islomda ham dunyoviy ilmlarning barchasi Qur'oni Karim ta'limoti bilan bog'liq va uyg'un holda berilgan.

Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Pifagor, Aristotel, Platonlar g'oyaga asoslangan o'zlarining inson kamoloti va tarbiya masalalarining falsafiy negizini

yaratgan. Aristotel «Iskandarga qilgan nasihati»da (U Iskandar Zulqarnaynning ustози bo'lgan va bu ham o'z navbatida Aristotelni o'z otasidan ustun qo'ygan) insonni eng yuksak fazilati taqvodorlik, iymonli ilmi bo'lishligini ta'kidlagan edi, ya'ni: «Taqvodorlik iymon vositasida kamol topadi. Iymon esa fikru andisha soyasida hosil bo'ladi», degan edi.

Ilmda xosiyat ko'p, chunki u – taraqqiyot kaliti – insonning qalb ko'zidir. Bunda ilm aqldan quvvat olganligi sababli aql ma'naviy haqiqatlari bilan insoniyat jamiyatining dunyoviy ishlarda intizom yaratadi. Bu haqda ulug' matematik va faylasuf olim Pifagorning quyidagi fikrlari fikrimizning isbotidir. Ular:

- «Donishmandlik nima?

Tartib-intizomlilik. Donishmand bo'lay desang hamma narsani joy-joyiga qo'y. O'tkinchi shuhratdan oqil kishining kundalik ishidagi tartib a'loroq»;

Yetuk shaxslarning (olimlar, donishmandlar, faylasuflar, yozuvchilar, shoirlar, qahramonlar, davlat arboblari va shu kabilar) hayoti va faoliyati ulug' ibrat, tarbiya sabog'idir.

Hozirgi kunda ham ilm-fanning turli sohalari, shuningdek, fan, adabiyot, san'at, falsafa va boshqa sohalarida ijod qilganlarning ismi sha'riflarini yo'qlash, qilgan ishlaridan foydalanish, insoniyatning og'irini yengil qilganda ularni eslab, yod qilib turilishi nihoyatda ahamiyatlidir.

Shu sababli ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, olim-mutafakkirlarimiz olamga mashhur bo'lganlar. Ulardan ayrimlarining fikrlarini keltiramiz. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning «Arifmetika» asari boshlanishidagi quyidagi fikrni keltiramiz: «Rahimli va mehribon tangriga loyiq maqtovlar aytaylik, unga minnatdorchiligimizni bildiraylik va uni ko'klarga ko'tarish bilan maqtovini oshiraylik, unga ibodat qilaylik, toki, u bizni adolat sari boshlab, haqiqat yo'lidan olib borish va bizga 9 ta raqamda iborat hind hisobi haqida bayon etishga qilgan qarorimizga yordam bersin».¹ Ya'ni «Arifmetika oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Al jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»ni taklif

¹ Мухаммад Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар. – Т.: «Фан», 1983. – Б. 59.

qildim, chunki meros tadqim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, yer o'lchash, kanallar o'tkazishda, (amaliy) geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir».

Abu Ali ibn Sino – u «Shayx ur-ra'is», ya'ni «Olimlar boshlig'i», «Tabiblar podshohi», nomlariga sazovor bo'lgan olim. Uning tarjimai holidan quyidagi fikrni o'qishimiz mumkin: «Agar biror masaladan boshim qotib, qiyosda o'rtacha ta'rifni topa olmasam, jome' masjidiga borardim va namoz o'qib, yaratguvchiga yulborardim, natijada qorong'u narsalar menga oydinlashar, mushkullar osonlashar edi», deb yozgan edi.

Abu Ali ibn Sino o'zining quyidagi asarlari bo'yicha ma'rifatimiz, madaniyatimiz va ma'naviyatimiz tarixiga katta hissa qo'shdi:

- falsafa, tibbiyot va tabiatshunoslik sohalariga oid «Qonun fit tib» («Tib ilmlari qonuni»); «Kitob ash shifo» («Jonni saqlash kitobi»); «Kitob an-najot» («Najot kitobi»); «Kitob an-insof» («Insof kitobi») va shu kabi asarlar yaratdi;
- axloqqa va ma'rifatga oid «Risola fi ilm al-axloq» («Axloqqa oid risola»); «Risola fi fazilat an-nafs» («Nafsni pokiza tutish haqida risola»); «Risola fi al-ahd» («Burch haqida risola»); «Kitob an-insof» («Adolat haqida kitob») va shunga o'xshash ta'lim-tarbiyaga oid boy ma'naviy merosni kelajak avlodga qoldirdi.

Buyuk davlat arbobi va ilm-fan homiysi, olim va o'z davri ta'lim tizimining bosh islohotchisi, ma'rifatparvar inson, dunyoda birinchi hisoblash markazining tashkilotchisi Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyatida ham dunyoviy ilmlar o'qitilishiga katta e'tibor berilgan.

Ulug'bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish maqsadida mudarrislar, talabalar bilan rasadxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni talab etib, bunga o'zi rahbarlik qilgan.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiya sohasida o'sha zamonlarda, hattoki hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan fikrlari

pedagogika fani metodologik asoslarini tavsiflashda nihoyatda muhimdir. Ya'ni, u ta'lim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb ta'kidlaydi:

- ta'lim oluvchini zeriktirmaslik kerak;
- talabalarga bilim berishda bir xil narsa va ma'lumotlarni doimo bir xil usulda o'rgatavermaslik kerak;
- uzviylik va izchillik asosida mavzularni qiziqarli qilib o'rgatish yo'llarini kashf etib borish kerak;
- ta'lim berishda mashg'ulotlarni ko'rgazmali qilib borishga erishish kerak;
- talabalarning bilim olishida ularning ilmlarni egallashiga tushunib harakat qilishini, ya'ni ijodiy intilishiga va qiziqishiga e'tibor doimo ta'lim beruvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim-tarbiya jarayonida muhitning ahamiyatiga alohida e'tibor bergan va u barcha illatlarning asosini bilimsizlik tashkil etadi, degan fikrda qat'iy turgan.

Beruniy inson kamolotidagi omillarni quyidagi asosiy qismlarga bo'ladi:

- ma'rifat va ta'lim beruvchining ilm-ma'rifatli bo'lishi;
- ilm-fanni e'tirof qiluvchi muhit;
- ijtimoiy muhit va to'g'ri tarbiya;
- ta'lim beruvchining yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lish.

Bular bugungi pedagogikaning metodologik asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fani metodologiyasining yaratilishida qomusiy olimlar bilan birga chex olimi Yan Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog Iogann Genrix Pestalossi, nemis pedagogi Adolf Disterverg, rus pedagogi K.D.Ushinskiylar katta xissa qo'shganlar.

Hozirgi kunda barkamol shaxs tushunchasi fuqarolik jamiyatini qurish va «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratish» uchun fidoiy farzand bo'lish tushunchalari bilan bog'lanib ketdi. Biz endi alohida-alohida yetuk shaxslargina emas, balki barkamol avlodni shakllantirishimiz va tarbiyalashimiz

lozim. Ana shundagina barkamol avlodli, intellektual salohiyatli shaxslar jamiyatiga ega bo'lamiz. Bu borada muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov «Turkiston» gazetasi muhbiri bilan qilgan suhbatida quyidagi qimmatli va ko'rsatmali fikrni aytganlar: «Endi oldimizga nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod, o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonni tarbiyalashdan iboratdir».¹

Demak, hozirda pedagogika fanining metodologik asosi tadqiqot metodlari, maqsad va vazifalari, yangi yo'nalishlari, ta'lim va tarbiya mazmuni, shakl va metodlari hamda boshqa bir qator muammolar yangicha yondashuv, ya'ni milliy mafkura asosida yaratilishini taqozo etmoqda. Shuningdek, Prezidentimiz I.A.Karimov o'z risola, nutq va suhbatlarida ilgari surgan fikrlar, g'oyalar, ana shu fikr va qarashlar asosida yaratilgan «Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» ham pedagogika fanining metodologik asosi sanaladi.

Shu bilan birga pedagogika fanining ham o'z ildizlari, sarchashmalari mavjud. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz moziyda ham bosh masala inson, uni barkamol etib tarbiyalash bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi manbalardan boshlab, keyinchalik paydo bo'lgan ta'limiy-axloqiy asarlarda ham amaliy masalalar tahlil etilganki, uning asosida inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosi markaziy muammo bo'lgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan boshlab, Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmud Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Sa'diyning «Guliston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» va boshqa juda ko'p didaktik asarlarning har birini bir pedagogik darslik, desak yanglishmagan bo'lamiz. Biz ana shu asarlarga tayangan holda tadqiqot ishlarini olib borgan taqdirdagina pedagogikaning ilmiy asoslarini boyitgan bo'lamiz.

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. – 7 том. – Тошкент: Ўзбекистон, - Б. 3-4.

Prezidentimiz I.A.Karimov bu borada shunday degan edi: «O'zbekistonning yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik».¹

O'zbekistonda mustaqillikni saqlab qolish va uni mustahkamlashda pedagogika fani va uning metodologik asoslariga bevosita bog'langan holda, har bir pedagogik masalaga ijodiy, rivojlantiruvchi nuqtai nazaridan yondashishi zarurdir. Ana shunda mazmunan yangilanayotgan zamon talablari asosida shakllanayotgan pedagogika – inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi zamonaviy metodlar va texnologiyalar hosil bo'lgandagina haqiqiy milliy va zamonaviy tarbiyashunoslik faniga aylanishi muqarrar.

Bu borada Respublikamiz Prezidentining quyidagi vazifaviy (ko'rsatmali) fikri ahamiyatlidir: «O'z-o'zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizasiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega».²

Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlari mavjud. Ular:

1. Didaktika – bu o'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan soha. Didaktika pedagogikaning ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rgatuvchi qismidir. Didaktika grekcha so'z bo'lib, «didasko» - o'qitish, «didaskol» - o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат мафкура. I том. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 76.

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли // «Халқ сўзи» газетаси. – Т.: 2007 (13.08.07й.). – 2 бет.

Muayyan bir fanga tadbiq etilgan didaktik qonuniyatlar, o'sha o'quv predmetining umumiy jihatlarini konkretlashtiradi va ularda o'qitishning umumiy jihatlarini namoyon bo'ladi.

2. Pedagogikada tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i – bunda shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarini shakllantirish masalalari yechimi qaraladi.

3. Pedagogika tarixi – bu jahon yoki milliy tarbiya nazariyasi, didaktika fani va amaliyotining jamiyat taraqqiyoti turli davrlarida qanday mazmun mohiyatga egaligi, ularning qanday shaklda ifodalanganligi, qaysi, usul, vosita, uslubiyat va shakllardan foydalanib faoliyat ko'rsatganligi, qanday natijalarga erishganligi kabi masalalarni o'rganadi.

4. Pedagogikaning maktabshunoslik sohasi – bunda ta'lim-tarbiyani tashkil qilish, uyushtirish va uni boshqarishga oid bo'lgan tashkiliy-pedagogik qonuniyatlar o'rganiladi va ularga mos qonuniyatlar tadqiq etiladi.

Mazkur soha bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishda albatta ta'lim oluvchilar va tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olinadi. Shuningdek, muammo yechimidagi natijalarning hayotiylikini ta'minlashda muhim ahamit kasb etadi. Bunga sabab muayyan yoshdagi ma'lum hayotiy va aqliy tajribaga ega bo'lgan kishilarning hayotiy faoliyati (turmush tarzi) turlichaligidir.

5. Defektologiya – bu jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining ruhiy-jismoniy xususiyatlarini, ularni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirishdagi o'ziga xosliklarni hisobga olib ish ko'radigan pedagogika fani tarmog'i.

Defektologiya bolaning qanday jismoniy nuqsonga egaligiga qarab va ularga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmuniga qarab quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

- tiflopedagogika;
- surdopedagogika;
- oligofreno pedagogika.

Shu sababli ham pedagogika quyidagicha turlardan iborat:

- oila pedagogikasi;
- maktab ta'limi pedagogikasi;
- umumiy pedagogika;
- pedagogika tarixi;
- maxsus pedagogika (surdo, tiflo, alegrofreno pedagogikalar;
- oliy ta'lim pedagogikasi;
- xususiy metodika;
- qiyosiy pedagogika.

Fan–texnikaning jadal rivojlanishi natijasida soha pedagogikalari rivojlanib bir qator pedagogika sohalari vujudga kelmoqda. Masalan, ishlab chiqarish pedagogikasi, sport pedagogikasi, harbiylar pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika va h.k.

Ta'limning sinf-dars tizimi ham pedagogikaning maktabshunoslik sohasiga tegishli bo'lib, maktabda ta'lim jarayonini tashkil etish tizimidan iborat. Ushbu tizimda o'quvchilarni yoshlariga va o'qish muddatlariga qarab muayyan sinflarga ajratiladi. Bunda ham DTS talablari asosda ta'lim o'quv rejasi va dasturiga muvofiq sinf-dars tizimida mashg'ulotlar olib boriladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan pedagogik ta'limning asosiy maqsadlaridan biri tarbiyada barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida qarashidir.

Yosh avlodni kelgusi hayotga barkamol qilib shakllantirish ruhiy va ma'naviy jarayonlarga bog'liq. Pedagogika fanining asosiy maqsadi bo'lajak tarbiyachi-o'qituvchilarning ongli faoliyatida maqsadi tarzda o'z ustida ishlash, intilish, muntazam ravishdagi izlanish, tanlangan vosita va metodlardan foydalangan holdagi tarbiyachilik san'atini o'rgatishga qaratiladi.

Bu mazmun quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- Kadrlar tayyorlash milliy modelini hayotga joriy qilishdagi bosh muddao barkamol shaxsni shakllantirishning bir butun holatidagi muammolarni hal etish;

- ta'lim-tarbiya samaradorligini muntazam ravishda oshirib borish hisobiga uni jahon talablari darajasiga olib chiqish masalalarini hal qilishga ijodiy yondashuvni amalga oshirish;
- umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmunini milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatini yaratish;
- pedagogika-tarbiyashunoslik qoidalarini, qonunlarini ilg'or pedagogik tajribalar asosida boyitib borish, yangi metodlarni izlab topish va qo'llashga doir tadbirlar ishlab chiqish;
- bo'lajak o'qituvchi va tarbiyachilarni kasbiy va ixtisoslik tayyorgarliklarini talab darajasiga yetkazish masalalariga e'tibor qaratish;
- uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal etish.

pedagogika fanining dolzarb muammolari:

1. Pedagogika fanini milliy pedagogika sifatida tarkib topdirish va uni jahon fanlari tizimida yuqori darajaga ko'tarish.
2. Pedagogika fani milliy mafkura, kadrlar tayyorlash Milliy modeli, taraqqiyotning O'zbek modeli talablari va ilg'or rivojlangan davlatlar davlat ta'lim standartlari asosida innovasion yondoshuvlar bilan o'z metodologiyasi va yo'nalishlarini tubdan isloh qilish.
3. Pedagogika fanidagi tadqiqot saviyasi va uning metodologiyasiga innovasion tus berish, ulardagi sifat o'zgarishlari va samaradorlikni muntazam ravishda baholab borishga erishish.
4. Pedagogik tadqiqotlarni olib borishda boshqa fanlarning ilg'or yutuqlaridan foydalanishga erishish, shaxsni bir butunlikda o'rganish va uni shakllantirish metodologiyasini yaratish.
5. «Pedagogika fanlari tizim va tarkibini takomillashtirish, ijtimoiy pedagogika sohasida oila pedagogikasi, ma'naviyat-ma'rifat pedagogikasi alohida fan sifatida tarkib topishi. Professional pedagogikada iqtidorli bolalarni tanlash va ularni o'qitish, maktab, lisey, kollej, malaka oshirish, oliy va xususiy o'quv yurtlari ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotining o'zaro bog'liqligi, pedagoglar ommasining erkin ijodkorligiga sharoit yaratish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish tizimini tarkib toptirish».¹

6. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta’limni texnologiyalashtirish: pedagogik texnologiya, ta’lim texnologiyasi, tarbiya texnologiyasi, innovasion ta’lim texnologiyasi va shu kabilarni alohida o’rganish, ular asosida innovasion pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya va zamonaviy axborot texnologiyalarni ishlab chiqish orqali ta’limni hamda pedagogik tadqiqotlarni kompyuterlashtirishga erishish, shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyasining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish.

7. Uzluksiz ta’lim tizimida bola tarbiyasi rivojining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash konsepsiyasini ishlab chiqish hamda barkamol avlodni shakllantirishga zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishish. Bunda mustaqillik mafkurasini insonlar ongiga singdirish usullari, shakllari, yo’llari, vositalari va ularning axborotli ta’minotlarini ishlab chiqib, hayotga joriy etish orqali yoshlarda o’zligini bilishi, o’z-o’zini boshqara bilishi, o’z-o’zini tarbiyalay olishi kabi xislatlarni takomillashtirish.

8. Pedagogik diagnostika va prognostika yo’nalishida ilmiy tadqiqot ishlarini davr talabiga mos rivojlantirish. Bunda ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so’nggi yutuqlaridan samarali foydalanishga erishish.

9. Ta’lim-tarbiya tizimida modeli, modulli ta’lim texnologiyalariga keng o’rin ajratish va ular asosida kompyuter uchun muloqotli ishchi dasturlar tayyorlab kompyuterli tizimlar yaratishga erishish va ulardan ta’lim-tarbiyaning innovasion xususiyatlarini vujudga keltirishda keng foydalanish.

10. Ta’lim-tarbiya jarayonida reyting-nazorat tizimiga katta e’tibor berish va bu jarayonlarni boshqarishni zamonaviy kompyuterlar zimmasiga yuklashga harakat qilish.

11. Uzluksiz ta’lim tizimidagi ta’lim-tarbiya tizimi maqsadi, vazifasi va mazmunini zamonaviy davr talablari asosida tubdan isloh qilishga erishish.

¹ Чориев А. XXI асрда педагогика фани // Ж. Халқ таълими.- Т.: 2001.- №4. – Б. 24-31.

12. Ta'lim-tarbiya tizimi metodologiyasini tubdan isloh qilish konsepsiyasini yaratish, komil inson modelini ishlab chiqish texnologiyasini yaratish.

13. Ta'lim-tarbiya jarayoniga bir butunlikda qarab, unga «tizimiy yondashuv» tadqiqot usulini qo'llashga erishish.

14. Tarbiyaning umumiy metodlarini takomillashtirish, sharq xalqlarining tarbiya borasidagi tajribalarini qo'llash metodikasini yaratish, tarbiya mazmuni va metodini insoniylashtirish;

- istiqlool mafkurasi asosida yoshlarning milliy dunyoqarashini shakllantirish, o'quv fanlarining aqliy kamolot imkoniyatini oshirish sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarining dunyoqarashini tarkib toptirish darajasini oshirish;

- ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini takomillashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish. Axloqiy tarbiyada sharqona namuna metodini qo'llash texnologiyasini yaratish».¹

15. Kasbiy va mehnat tarbiyasining jamiyat, ishlab chiqarish, ilm-fan, texnika-texnologiyalar asosida rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqarish.

16. Iqtisodiy va ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanishga erishish va bunda ilm-fan yutuqlaridan muntazam foydalanib borish mexanizmini yaratish.

17. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yanada jonlantirish va yoshlarimiz g'oyaviy ongida bo'shliq hosil bo'lishga yo'l qo'ymaslik metodologiyasini yaratish.

18. Aqidaparastlik va terrorizm vabolaridan yoshlarimizni asrashda kasbiy kompyuterli o'yinlardan keng foydalanishga erishish, ayniqsa, kiberterrorizmdan yoshlarimizni asrash mexanizmini yaratishga keng imkoniyatlar yaratish.

19. Ijtimoiy va kasbiy pedagogikasining barcha sohalarini muntazam ravishda davr bilan mos holda takomillashtirib borishga erishish.

¹ Чориев А. XXI асрда педагогика фани // Ж. Халқ таълими.- Т.: 2001.- №4. – Б. 24-31.

20. Ta'lim-tarbiya sohasidagi barcha xatti-harakatlarimizni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va boshqa shu kabi davlat me'yoriy hujjatlari asosida olib borishga erishish va h.k.

Ushbu muammolar qatorini yana ko'plab davom ettirish mumkin.

Ta'limning, o'qitishning vazifasi yoshlarning eng asosiy konstitusiyaviy huquqlaridan biri bo'lgan har bir kishining aqliy-amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijobiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta'minlash, o'zi xohlagan kasbini tanlash, uni mukammal egallab, shu sohada samarali faoliyat ko'rsatish uchun moddiy-ma'naviy, tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bu umumiy vazifadan ta'limning har bir bo'g'ini, turi va bosqichlarining o'ziga xos vazifalari kelib chiqadi.

Ushbu ma'noda pedagogika fanining vazifalari quyidagilardir:

- Sharq va G'arb xalqlari yaratgan, xalq og'zaki ijodiyotiga asoslangan pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini o'rganib, tahlil qilib, barkamol shaxsni shakllantirishning qonun-qoidalari va zaruriy sifatlarini aniqlash;
- Pedagogika – tarbiyashunoslikdagi ta'lim-tarbiya nazariyasini hozirgi davr xususiy metodikasi bilan uzviylik muammosini ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar talablariga amal qilish;
- ta'lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va usullarni maktab amaliy hayoti bilan bog'lab bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatish;
- xalq ta'limini boshqarish va unga rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib, bo'lajak o'qituvchilarni qanday tayyorlash muammolarini hal etish.

Ma'lumki, inson kamoloti, uning yashash davridagi muhit va tarbiyaga hamda o'sha davrlardagi ongli faoliyatiga bog'liq holda rivojlanadi. Bola juda yoshligidan boshlab kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi va asta-sekinlik bilan bu faoliyat ularning shaxsiy xususiyatlariga ta'sir etib, shaxs sifatida shakllanib boradi.

Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri va maqsadga muvofiq qilib uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa bir yoqlama bo'ladi yoki salbiy rivojlanishga olib kelishi mumkin.

Pedagogika fani tarbiya nazariyasi va dialektikaning uyg'unligi asosida insonda bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy-ma'naviy meros, an'analar, urf-odatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning boy manbalari bo'lgan tarbiya va ta'lim berish haqidagi tushuncha, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishda boshqa fanlar qatori o'z o'rnini va aloqadorligi bor. Pedagogika falsafa, psixologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, sinergetika va informatika kabi fanlar bilan mushtarak rivojlanib kelgan.

Bugungi kunda bir qator umumiy masalalar ishlab chiqilganki, bu masala falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir. Bular jumlasiga tabiat bilan boshqa ijtimoiy hodisalar orasidagi o'zaro aloqalar: dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayonining mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan geneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi. Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sosiologiya, etika (axloq-odob), estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Insonning aqliy rivojlanish qirralarini, jihatlarini o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi. Bugungi kunda pedagogika fani ko'p tarmoqli fan sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, pedagogika fanlari tizimiga etnopedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, kasbiy ta'lim pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, axloq tuzatish va mehnat pedagogikasi, jismoniy kamolot pedagogikasi, harbiy pedagogika, maxsus pedagogika: kar-soqovlar (surdo) pedagogikasi, ko'rlar (tiflo) pedagogikasi, aqliy jihatdan orqada qolgan (oligofreno) pedagogika, logopedagogika, pedagogik mahorat kiradi.

1.2. Uzlüksiz ta'lim tarbiya tizimining yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi

Inson bor ekan yaxshi yashashga intiladi. Yaxshi yashashning asosi tinimsiz mehnat, ya'ni ham aqliy ham jismoniy mehnat qilishdan iboratdir. Ushbu mehnat insonning keyingi hayotini chiroyli kechishini ta'minlashini Shaxsning shakllanishida harakat o'ziga xos omil sanaladi. Go'dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni bajaradi. Biroq, bu harakatlar keyinchalik reflekslar bo'lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo'zg'atuvchilarga javob tarzida yuz beradi. Go'dakda nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, uning tomonidan tashkil etilayotgan harakatlar ongli ravishda sodir bo'la boshlashi va albatta, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirokining ro'y berishi shaxs shakllanishining dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Shaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Odam inson individi shaxsga aylanmog'i uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan farq qilishi lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xususiyati, qiziqishi, qobiliyati, aqliy jihatdan rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji, mehnat faoliyatiga munosabati bilan boshqalardan farqlanadi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, mazkur xususiyatlari rivojlanib, ma'lum bir bosqichga yetsagina u kamol topgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida qaror topadi.

Shaxsning rivojlanishi, avvalo uning shaxsiy xislatlarining shakllanishi bilan boshlanadi.

Shaxs nomini olish uchun nimalar kerak? – degan savolning tug'ilishi tabiiydir. Odam ijtimoiy mavjudot sifatidan shaxsga aylanishi uchun unga ijtimoiy – iqtisodiy hayot sharoitlari, muhit va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular hamda shaxsning nasliy xususiyatlarining takomillashib borishi odamning rivojlanishi, shaxs sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishini, uning har tomonlama kamolga etishi uchun pedagogika fani shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, unga ta'sir etadigan omillarni, rivojlanish

jarayoniga aloqador bosqichlarni aniqlashi kerak. Shuningdek, bola shaxsning rivojlanishida faoliyatini o'rni va ahamiyatini ham o'rganishi lozim.

Biz yuqorida «rivojlanish» tushunchasini ishlatdik. Endi ushbu tushunchaga atroflicha yondashib, ta'rif berishga harakat qilaylik. Rivojlanish – shaxsning jismoniy, aqliy va boshqa xislatlarning takomillashuvini namoyon etadigan jarayon bo'lib, bunday xislatlar tug'ma, ba'zilar keyinchalik erishilgan bo'ladi. Odam biologik mavjudod sanaladi, tabiiy, biologik va ijtimoiy qonuniyatlarga bevosita bo'ysinadi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiyasi fiziologiyasining maxsus qonunlariga bo'ysinadi. Bulardan tashqari odamning barkamol inson bo'lib shakllanishida aniq maqsad asosida tashkil etilgan xatti – harakat, iroda sifatlarining kamol topishi asoslarida ayrim nuqsonlarning bartaraf etilishi, qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan ishonch ham muhim ahamiyatga egadir.

Irsiyat – bu ota qoni yoki ajdodlariga xos bo'lgan biologik xususiyat va o'xshashliklarning nasliga (bolaga) o'tish jarayonidir.

Nasldan – naslga o'tadigan xususiyatlarga quydagilar kiradi:

Anatomik – fiziologik tuzilish (misol uchun yuz tuzilishi), organlar holati, qaddi – qomat, asab tuzilishi xususiyatlari, teri, soch hamda ko'zlarning rangi. Shuningdek, nutq, tafakkur, ixtiyoriy harakat va amallar, vertikal holatda yurish, mehnat, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste'dod alomatlari ham nasldan – naslga o'tadi. Iste'dod alomatlari umumiy xususiyat kasb etadi, muayyan mehnat va ijod turiga yo'naltirilgan emas. Iste'dod alomatlari muayyan faoliyatga moyilligini aks ettiradi, xolos. Ma'lum oilada tarbiyalanayotgan bolada ajdodlariga xos iste'dod nishonasi aks etganda, aynan shu iste'dodning shakllanishida muhim rol o'ynagan, uning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarga oila muhitini nazoratdan chetda qoldirmaslik lozim.

Fiziologiya va psixologiya fanlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror bir qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishi uchun manba bo'lgan layoqat

bilan tug'iladi. Layoqat go'yo «mudroq» holatda bo'lib, uning «uyg'onishi» - rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishini talab qiladi.

Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat maxsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma'naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog'liq.

Muhit – bu shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi voqyea-hodisalar majmui tushuniladi. «Muhit» tushunchasi o'ziga geografik – hududiy, ijtimoiy va mikro muhit (oila) xususiyatlarini ifoda etadi.

Mikromuhit o'zida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Ayni chog'da nisbatan mustaqillikka ega. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lib, oila, maktab, do'stlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy rivojlantiruvchi va inqirozga eltuvchi hodisalar mavjud. Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, erta ko'rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa yo'q bo'lishi yoki «mudroq»ligicha qolib ketishi ham mumkin. Bundan tashqari odob, axloq, xulqiy sifatlar, shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Pedagogika va psixologiya fanlari ijtimoiy muhit, unda shaxsning shakllanish jarayoniga, ta'siri roliga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy voqyea va hodisalarning shaxs rivojiga ta'siri g'oyat muhim ekanligini ta'kidlagan holda, ular ijtimoiy muhit abadiy emas, u ijtimoiy – tarixiy qonuniyatlar ta'siri ostida o'zgarib boradi, deya ta'kidlaydilar.

Oila muhiti – mikro muhit ham o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu bois mustaqillikka erishilgandan so'ng, o'tgan davr mobaynida oila muhitining shaxs kamolotida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilmoqda. Shu maqsadda tashkil etilgan «Oila» ilmiy markazi oilaning bu boradagi imkoniyatlarini ochib berish borasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Mavjud ijtimoiy muhit insonning o'sib borayotgan ongiga ta'sir etadi. Ijtimoiy tuzim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning shaxsga nisbatan ongli

ta'siri ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ushbu ta'sir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta'sirlarning barchasi bilan bog'liq holda shaxs rivojlanishiga ta'sir etadi. Bunda qulay omillardan foydalaniladi, salbiy ta'sirlarning kuchini ma'lum darajada kamaytiradi. Muhitning ta'siri stixiyali, tarbiyaning ta'siri esa maqsadga muvofiq olib boriladi.

Tarbiya jarayonida quyidagi holatlar vujudga keladi:

1. Tarbiya jarayonida kishi ongining o'sishi sodir bo'ladi. Masalan, bola o'z ona tilini atrofini o'rab turgan muhitning ta'sirida o'rganib olishi mumkin. Lekin o'qish va yozishni ta'lim olish yo'li bilan o'rganadi. Ma'lum bilim ko'nikma va malakalar faqat tarbiya jarayonida egallanadi.

2. Tarbiya yordamida kishining tug'ma kamchiliklarini ham kerakli tomonga o'zgartirish mumkin. Chunonchi, ba'zi bir bolalar ayrim kamchilik bilan tug'iladi. (kar, ko'r, soqov va h.k). Lekin maxsus tashkil etilgan tarbiya yordamida ularning aqliy qobiliyatlari taraqqiy qiladi, tug'ma kamchiligi bo'lgan kishilar bilan barobar faoliyatda bo'lishi mumkin.

3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergan kamchiliklarni xam tugatish mumkin (bolalarning karta, qimor uynashi, chekishi, ichish va narkotik moddalarga o'rganish kabilar va x.k.).

4. Tarbiya – istiqbol maqsadni belgilaydi. Shu bois, shaxs kamolotini ta'minlashda ilg'or rol uynaydi.

Tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bola shaxsining o'ziga xos xususiyatlari, u yashayotgan muhitning ta'sirini hisobga olishga bog'likdir. Shuni yodda tutish kerakki, bola mavjud bo'lgan mikromuhit mazmunini, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi kishilar va ular bilan o'rnatilgan aloqa mohiyati belgilaydi. Bola oila a'zolari, tarbiyachi, o'quvchi, o'rtoqlari, oilaga yaqin kishilari bilan munosabatda bo'ladi. Ushbu munosabatlar bolaning rivojlanishida g'oyat muhim rol uynaydi. Bolaga ularning ta'siri o'zaro muomala - munosabatida bo'ladi. Ana shu aloqa asosida bola ajdodlar tajribasini o'zlashtiradi, o'zi uchun andoza tanlaydi.

Ijtimoiy munosabatlar jarayonida nutq rivojlanadi. Chunki jamiyatda bola kattalar, tengdoshlar, tarbiyachilar va turli jamoalar qurshovida bo'ladi, u savollar beradi, kuzatadi, mulohaza qiladi. Hayotiy voqeya – hodisalarni tushunishiga, yaxshini yomondan ajratib olishga, o'z harakatlarini davr talabiga moslashtirishga urinadi. Har bir ijtimoiy jamiyatda tarbiyaning maqsad va vazifalari, axloq me'yorlari, madaniy boyliklar, jamiyat a'zolarining didi, axloqiy qarashlari, dunyoqarashlari, e'tiqodlari o'zgarib boradi va ular tarbiya vositasida bolalar ongiga singdirilib boriladi. Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kunlik faoliyat zarur. Faoliyat yordamida bola atrof - muxit bilan munosabatda bo'ladi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, tafakkur qilish darajasi yuksaladi, xarakter sifatleri takomillashib kamol topadi.

Shaxsning kamol topishida tarbiya muhim rol o'ynaydi. Uning shakllanishi faoliyatdan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat – o'yin, mehnat, o'qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, muhit va ta'lim – tarbiyaga bog'lab o'rganish, talqin qilish ham haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki, ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o'zi ham faol ishtirok etadi. Aytish mumkinki, ijtimoiy muhit, ta'lim – tarbiya shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqa boshlaydi.

Tug'ilganda hamma chaqaloqlar bir xil yig'laydi. Ammo ular katta bo'lganlarida turli mavqiyega ega bo'ladi. Nima uchun?

Bola o'z onasidan tug'ilishi bilan uni tashqi muhit asosida tarbiyalash boshlanadi, chunki, odatda, u ichki muhit asosida ona qornida tarbiya oladi.

Tarbiya insonning o'z oilasi, jamoasi, jamiyatida muhim asos hisoblanadi, chunki hyech kim o'z onasidan «yomon» bo'lib tug'ilmaydi. Tug'ilgandan keyin ham hyech bir ota-ona o'z bolasini yomon bo'lishini xohlamaydi, balki uni ardoqlab o'stiradi.

Har qanday yomonlik, gunoh ishlar tarbiyasizlikdan (bilimsizlikdan, ma'naviy qashshoqlikdan) kelib chiqadi.

Shaxs kamolotida tarbiyaning o'rni haqida Demokritning quyidagi fikri qimmatlidir: «Insonni inson qilib o'stiruvchi narsa - bu tarbiyadir».

Shaxs faoliyatida ta'lim-tarbiya va ilm muhim rol o'ynaydi. Shu tufayli buyuk shaxs bo'lib yetishadi. Ulardan ayrimlarini ibrat-namuna sifatida keltiramiz.

Alisher Navoiy – she'riyat mulkining sultoni, uning adolatli jamiyat qurish haqidagi ta'limoti ma'lum va mashhur. U 4-5 yoshlaridayoq she'r yozishni mashq qilgan. Unga atab Vatanimizda bir necha joylar: o'quv yurtlari nomlari, viloyatlar va tumanlar nomlari, xo'jaliklar, ko'cha va xiyobonlar, teatrlar, metro stansiyalari nomlari qo'yilgan hamda haykallar o'rnatilgan. Bulardan tashqari Moskva va Tokio (Yaponiya) shaharlarida uning haykallari bor. Navoiy uning taxallusi bo'lib, navo – bu kuy degan ma'noni anglatib, navoiy so'zi esa «kuylayman» ma'nosini anglatadi.

Demak, to'g'ri tarbiya insonni ilmi, bilim, ongli, madaniyatli, ma'rifatli va hattoki komil inson darajasigacha yuksaltiradi.

Inson tarbiya orqali komillik sari «ko'kka bo'y cho'zadi» va unda eng yaxshi «yo'ldosh» hayotda olinadigan ibrat-namuna va kitob mutoala qilish orqali bilimli – ma'rifatli bo'ladi.

Qobiliyat va iste'dodning ro'yobga chiqishida insoning muayyan faoliyatiga qiziqishi bilan bir qatorda uning o'z ustida ishlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iste'dodli kishilar iqtidor kuchini to'la ro'yobga chiqarishi uchun o'z ustilarida tinmay ishlashlari, mehnat qilishlari shart. Masalan, mashhur grek notig'i Demosfen (eramizdan oldin. IV asr) omma orasida dastlab nutqlari bilan muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Demosfen duduq, ovozi xasta, qisqa – qisqa nafas oladigan kishi edi. U doimo bir yelkasini o'girib turar edi. Demosfen kamchiliklarini tuzatish uchun o'zi ustida tinimsiz ishladi: u og'ziga mayda toshlar va sopol parchalarini solib, so'zlarni talaffuz qilishni o'rgandi, dengiz bo'yida to'lqinlar shovqinida nutq so'zladi, qoyalarga chiqib baland ovoz bilan she'rlar o'qidi, oyna oldida turib yuz harakatlarini bir maromga keltirdi. Uy shiftiga

qilichni osib qo'ydi, u odati bo'yicha yelkasini har o'g'riganda, qilich yelkasiga sanchilar edi. Demosfen haftalab uydan chiqmasdan notiqlikni o'rganish uchun mashq qildi. Oxir – oqibat o'zi ko'zlagan maqsadga erishdi va shuhrat qozondi.

Mashhur kishilar hayotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning ijodiy faoliyatlaridan asosiy narsa uzluksiz izlana bilish, o'z oldiga qo'yilgan maqsad uchun intilish, kurashish, unga yetishish yo'llarini izlash omilidir. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati davrida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularga fan asoslarini chuqur singdirib borishni o'z oldiga maqsad qo'yishi va uni ro'yobga chiqarish uchun tinmay izlanish, mehnat qila olish qobiliyatlarini, kuchli iroda va qat'iy xarakterni tarbiyalab borishlari lozim.

O'qituvchilar orasida bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutuvchi omillar va ularning ahamiyatini bilmaydigan o'qituvchilar ham uchrab turadi. Masalan, ayrim o'qituvchilar ulgurmovchi, o'qishdan orqada qoluvchi o'quvchilardan qutilish yo'llarini qidiradilar. Ularni yo sinfda qoldirish yoki boshqa maktabga o'tkazish yo'llarini qidiradi va bunga erishadi ham. Bu kabi choralarni qo'llash bilan biz o'quvchilar tarbiyasini tashkil etishda ko'zlagan maqsadga erisha olmaymiz.

Fanlardan o'zlashtira olmagan o'quvchilarni qobiliyatsiz deyish xato, o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi har bir o'quvchining yoshini va psixologik xususiyatini chuqur o'rganishi, uning qiziqishi va istaklarini aniqlashi, ularni hisobga olgan holda pedagogik chora-tadbirlarni qo'llashi lozimdir. Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy hamda irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Xulosa qilib aytganda, rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek, pedagogika fanining eng muhim vazifasi shaxs rivojlanishini har jihatdan o'rganishdir va o'qituvchining ishda muvaffaqiyat qozonish sharti – o'z o'quvchilarining xislat va xususiyatlarini bilishdir.

Shaxsning shakllanishida unga berilayotgan ta'lim – tarbiyaning mazmuni, metodlari va vositalari bolaning yosh xususiyatlariga muvofiq kelishi muhim sanaladi. O'qituvchi o'quvchilarning ruhiy xususiyatlarini bilishi, ma'lum yoshdagi o'quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur layoqatlarini inobatga olishi

asosida faoliyat tashkil etishi lozim. Shaxsning aqliy va jismoniy kamolotida doimo ilgoriga qarab rivojlanish ro'y beradi. Bolaning jismoniy va ruhiy kamoloti qaror topib borar ekan, bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichida bir hil bo'lmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo'ladi. Tarbiya jarayonida o'sayotgan yosh avlod o'ziga xos xususiyatlarini bilishi juda zarur. Ma'lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi – tarbiyalanuvchilarning har birining o'ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjud.

Bu o'ziga xoslik rivojlanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Yosh xususiyatlarni hisobga olish, bola xususiyatiga moslashish emas, balki shu yosh davrida bola imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish demakdir. Shundagina shaxs rivojlanishiga tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi.

Tibbiyot, odam anatomiyasi, yosh fiziologiyasi va maktab gigiyenasi, psixologiyasi hamda pedagogika fanlari asoslariga ko'ra bolaning yosh davrlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin .

Yosh davrlari shartli ravishda guruhlanadi. Unda muayyan yosh davrning guruhlanishi bolaning rivojlanish xususiyatlardagi o'zgarishlarga qarab ajratiladi. Quyida yosh davrlariga qisqacha to'xtalamiz.

Go'daklik davri. Yangi tug'ilgan bolada barcha sezgi turlari mavjud bo'ladi. Ushbu sezgilar murakkab bo'lmay, oddiy holatdadir. Chaqaloq bir holat faol bo'lib, bu faollik, avvalo, qo'l oyoqlarning refleks yo'li bilan harakatlanib turishida ko'rinadi. Huddi shunday reflektor harakatchanlik bolaning chinqiriqlarida ham namoyon bo'ladi. Bolada vujudga keladigan shartli reflekslar 5–6 haftalarda yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Masalan, u onasining ovozi taniydi, uni eshitsa, tinchlanadi. Begona odamlarni «yoqtirmay» bezovtalanadi.

Go'daklik davrida bola birmuncha tajriba to'plashi bilan uning idrok va tasavvurlari tarkib topa boshlaydi. Odatda, besh – olti oylik bola o'tiradigan bo'ladi, so'ngra emaklab, tik yurishga harakat qila boshlaydi, bir – ikki yoshda qadam qo'yib yura boshlaydi.

Bola yarim yoshdan oshgach, «g'uldirab» so'zlaydi hamda atrofdagilarning gaplarini tushuna boshlaydi va unda asta – sekin passiv nutq o'sadi, ikki yoshga qadam qo'ygach, faol nutqni o'zlashtirib gapira boshlaydi. Nutq va tafakkurning o'sishi bolaning atrofdagi kishilar bilan munosabati murakkablashib, o'ziga xos mazmunga ega bo'la boshlaydi. Ushbu holat bola ruhiyatining o'sishiga yordam beradi. Yasli davriga qadar bola aniq gapiradigan va o'zi mustaqil yura oladigan bo'ladi. Shuningdek, bolaning harakatchanligi, tafakkur va nutqi zo'r berib taraqqiy etadi. Bu davrdagi bola tafakkuri «predmed tafakkuri» bo'lib, u o'zi idrok qilgan, ko'rgan narsalar haqida fikr yuritadi. Uning tafakkuri predmetlar munosabatida ko'rinadi.

So'z yuritilayotgan davrda bolaning hissiy kechinmalari yuzaga kela boshlaydi. Dastlab ta'm bilish hamda teri sezgilari orqali qabullarga nisbatan organik hislar namoyon bo'ladi. Keyinchalik ehtiyoj, erkalanish va yaqinlariga mehribonlik sezgilari, g'azablanish, qo'rqish hamda zavqlanish kabi sezgilar namoyon bo'la boshlaydi.

Maktabgacha tarbiya davri. Ushbu yoshdagi bolaning emosionalligi (xissiy beriluvchanligi) uning faolligida, harakatchanligida ko'rinadi. Bu yosh davrida bolalar hayotida o'yin o'ziga xos o'rin tutadi, o'yinlar asosan katta yoshdagi kishilar yoki bolalarning harakatlariga nisbatan taqliddan iborat bo'ladi. Bolani o'yinning mazmunidan ko'ra o'ynalayotgan buyumlar (o'yinchoq va qo'g'irchoqlar) hamda o'zining harakatlari ko'proq zavqlantiradi.

Mazkur yosh davrida bola faoliyatida ixtiyorsiz faollik bilan bir qatorda ixtiyoriy diqqat ham o'sa boshlaydi. Bu davr bola «men» ligining vujudga kelishi bilan ham xarakterlidir. U tevarak – atrofdagi bolalar bilan o'zini solishtiradi, o'zining ulardan ustun jihatlarini qidira boshlaydi. Bunday holatlar uning «mening o'zim» so'zini keng qo'llashda seziladi.

Olti yoshga qadar bola dunyoni, ijtimoiy borliqni to'laligicha idrok yetadi. Uning atrofdagilar bilan munosabat doirasi kengayib boradi. Bu esa uning nutqi va tafakkurini yanada o'stiradi. Munosabatlar doirasining kengayib borishi unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini oshiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tafakkuri aniq tafakkur bo'lib, u nimalarni idrok etsa yoki tasavvur qilsa, o'sha narsalar haqida fikr yuritadi. Shu bois bola uchun mavhum voqyea – hodisalarga qiyoslab tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Atrorfdagilar bilan muomalada bo'lish asosida bolada ma'naviy qarash shakllanadi, endilikda ular turli harakatlarni «yaxshi», «yomon» deya baholab boradilar. Bu davrda bola hayotda o'yin bilan birga faoliyatining boshqa turlari ham ahamiyatli bo'lib boradi, dastlabki mehnat ko'nikmalari hosil bo'ladi: rasm chizadi, loydan, qumdan shakllar yasaydi. Shuningdek, ular kattalar tomonidan berilgan oddiy topshiriqni bajarib boradilar. Ularni kuchlari yetadigan ishlarga jalb qilish yaxshi samara beradi.

Kichik maktab yoshi. 7 yoshga to'lgan bola (ushbu yosh qator mutafakkirlar tomonidan dastlabki «yetuklik yoshi» sifatida e'tirof etilgan) jismoniy va ruhiy xususiyatlarga ko'ra maktabga, ta'lim olishga to'la tayyordir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq Respublikamizdagi bolalarning barchasi 6–7 yoshdan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil ola boshlaydi. Shu davrga qadar bola hayotida muhim o'rin tutgan o'yin faoliyati o'z o'rnini tizimli, uzluksiz ravishda amalga oshiriladigan va majburiy vaqt asosida tashkil qilinadigan o'qish faoliyatiga bo'shatib beradi. Yosh bola uchun bunday «mas'uliyatli mehnat» ga o'tish qiyin kechsa-da, u asta – sekin bunday sharoitga ko'nika boradi.

Kichik maktab yoshi o'quvchilari ijtimoiy borliq haqida muayyan tasavvurga ega bo'lsalar ham ro'y berayotgan voqyea – hodisalarning mohiyatini bilishga qiziqadi. Maktabda tashkil etilayotgan ta'lim jarayoni bolaning aqliy faoliyati uchun zarur bo'lgan fazilatlarning tarkib topishini ta'minlaydi. Kichik maktab yoshi o'quvchilari jismoniy jihatdan bir maromda o'sadi, o'g'il va qizlar gavda tuzilishi jihatdan bir – birlaridan deyarli farq qilmaydi. Ularning bo'yi o'rtacha 120 sm, og'irligi 22 kg atrofida bo'ladi. Suyaklarda tog'aylik holati o'sadi. Naysimon ilik suyaklari asosan eniga o'sadi, tuzilishi takomillashib boradi va 12 yoshda bu suyaklar kattalarnikiday qiyofaga ega bo'ladi. Lekin bo'g'inlar, umurtqa pag'onasi, tos suyaklari hali elastik holatda bo'ladi. Ko'krak qafasi va

umurtqa pag'onasi suyaklari yetarlicha qotmaganligi tufayli ular tez shikastlanishi mumkin. Ularda muskul paylari va bo'g'inlar tez rivojlanadi. Muskul kuchining ortib borishi tufayli bu davrda o'quvchilar g'oyat harakatchan bo'ladi.

Kichik maktab o'quvchilarining bosh miyasi o'sib borib, uning tuzilishida o'zgarishlar ro'y beradi. Ularda o'pka rivojlangan, lekin nafas yo'li hamda diafragma bo'sh rivojlangan bo'ladi, shu tufayli kichik yoshdagi o'quvchilar ko'p vaqt harakatsiz qolsalar organizmning kislarod bilan ta'minlanishi yomonlashadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning yuragi, qon aylanish tizimi va nafas olish organlari o'sishda davom etadi. Ularning yuragi kattalarnikiga nisbatan ikki marta ko'p qon ishlab chiqaradi. Shu bois ularning yurak urishi tez bo'lib, har daqiqa 90–92 martaga yetadi. Qonning tarkibida oq qon tanachalari ko'p bo'ladi. Jismoniy o'sishning bu kabi xususiyatlari kichik yoshdagi o'quvchilarga nisbatan o'qituvchilar tomonidan ehtiyotkorona yondoshuvni talab qiladi. Ularni asabiylashishdan saqlash lozim. Bu yoshdagi o'quvchilar ko'proq harakat qilishi, ochiq havoda bo'lishi, yetarli darajada dam olishi, uxlashi ta'lab etiladi. Atrofdagilar buning uchun g'amxo'rlik qilishlari lozim. Ularning stol atrofida, partada to'g'ri o'tirishiga, o'rnida tekis (o'rin yumshoq bo'lmagani ma'qul) yotishiga, qomatlarini tik tutib yurishiga e'tiborli bo'lishi kerak. O'yin vaqtida qaltis harakat qilishdan ularni saqlash zarur.

Kichik maktab o'quvchilarida ixtiyoriy diqqat, xotira va idrok, tafakkur, ixtiyoriy idrok qilish, nutq, his-tuyg'u, iroda kabi ruhiy jarayonlar rivojlanadi. Shu bois ular bilim olishga va o'rganishga intiluvchan bo'ladi. Atrofdan ro'y berayotgan voqyea-hodislarning barchasi ularni qiziqtiradi. O'qituvchi ularning qiziqishlarini qondirishga harakat qilishi va shu asosda qiziqishlarni rivojlantirib borishi kerak.

Kichik maktab yoshi o'quvchilari uchun eng ideal shaxs – o'qituvchi bo'lib, bolalar ularning talablarini dildan bajarishga urinadi. Ular orasida o'qituvchining obro'si o'z ota-onasidan ham baland bo'ladi.

Kichik maktab yoshi o'quvchilarining fikrlashi obrazli bo'ladi. Shu bois, ularga kinoya, kesatik hamda qochiriqli gaplarni gapirish samara bermaydi. O'qitish ko'rgazmali qurollar, vositalar yordamida tashkil etilishi kerak. Materialni

tushuntirishda uning obrazli, ifodali bo'lishiga erishishi lozim. Ularning kayfiyatiga o'qishdagi yutuqlari, olgan baholari, shuningdek, amalga oshirgan ijobiy ishlari ta'sir qiladi. Shu bois o'qituvchi tomonidan unga berilayotgan e'tibor alohida qiymatga ega. Uning har bir harakati o'qituvchining e'tiroziga sababchi bo'lsa unda o'qish istagi yo'qoladi. Maktab ta'limidan ko'ngli soviydi. O'qituvchidan qo'rqqanidan yolg'on gapira boshlaydi. Bu hol doimiy takrorlanaversa, qo'rqqoqlik va yolg'onchilik uning asosiy xislati bo'lib qoladi. O'qituvchi tanbehi oqilona bo'lib, bola sha'nini yerga urmasligi, shaxsini kamsitmasligi kerak.

O'smirlik davri. Kichik maktab yoshidan o'tgach, o'smirlik davri boshlanadi. Bunda bola shaxsi rivojlanishining murakkab davri boshlanib, u o'tish davri deb ataladi. O'tish davri bolalikdan balog'at davriga o'tishni ifodalaydi. O'smirlik yoshining murakkabligi uning anatomik – fiziologik va psixologik xususiyatida ro'y berayotgan kuchli o'zgarishlar bilan bog'liq.

O'smirlik yoshida jismoniy jihatdan sekin o'sish davri tugaydi. Jismoniy o'sish tezlashadi. O'smirlar 3 – 4 yil ichida 20 – 25sm o'sadilar (qizlarning o'sishi 18 – 25, o'g'il bolalar 25 – 30 sm ni tashkil etadi). Bo'yiga o'sish, ilik suyaklarining uzayishi va umurtqa suyagining kattalashishi hisobiga ro'y beradi, ammo ilik suyaklarining oxirgi qismlarida ham tog'aylik holati ustun bo'lib turadi. Shu sababli ularga jismoniy topshiriqlar berishda gohida bu holat inobatga olinishi kerak. Ushbu holat tufayli o'smirning qaddi – bosti beso'naqay ko'rinadi. O'z navbatida suyakning tez o'sishi, muskullar rivojining ortda qolishi sababli o'smir baland, oyoq qo'li uzun, ozg'inday ko'rinadi. Bu esa uning yurishiga, gavda tutishiga ta'sir etadi.

O'smirning ko'krak qafasi ham bo'yiga nisbatan sekin o'sadi. Shu sababli ko'pchilik o'smirlarning ko'krak qafasi tor bo'ladi. Bu holat organizmning kislorod bilan to'yinishiga to'sqinlik qiladi. Ta'lim - tarbiya jarayonida mazkur holatni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Qon aylanishida ham katta o'zgarishlar yuz berib, yurak hajmi ortadi, ammo qon tomirlarining rivoji bir oz ortda qoladi. O'smirlik yoshida jinsiy yetilish davri boshlanadi. Ularda ayollik va

erkaklikning tashqi belgilari (ovozning do'rillashi, mo'ylovining sabza urishi, ko'krak qafasi va ko'krak bezlarining, o'g'il va qiz bolaning nafas olishidagi tafovut) paydo bo'la boshlaydi. O'zgarishlar ta'sirida ro'y bergan erotik sezgilar ularni tashvishga soladi. Bularning barchasi ichki va tashqi tafovutlarni kuchaytiradi. Organizmdagi o'zgarishlar o'smirning atrofdagilar bilan munosabati mazmuniga ta'sir etadi. O'smir tabiati tundlasha boradi, kayfiyati tez o'zgaradi. Uyda, oila a'zolari davrasida esa o'zini erkin sezadi. Shu bois ko'proq ular bilan bo'lishni istaydi.

O'smirning faoliyatida o'qish muhim o'rin tutadi. O'qish ishga aylanib qolgani uchun talablarning ortib borayotganligiga o'smir befarq munosabatda bo'ladi. Fanlarni o'zlashtirishda qisman «pastlashish» holati kuzatiladi. Ammo mustaqil topshiriqlarni bajarishda faol bo'ladi. O'smir intizomida salbiy holatlar ko'rina boshlaydi, bu hol uning mustaqil bo'lishga intilishi asosida yuzaga keladi. Agar o'qituvchi o'quvchi xususiyatining yaxshi bilmasa, qo'yilayotgan talablarda birlik, yaqinlik bo'lmasa hamda ular asoslab berilmasa, o'smir xulqida kattalarga bo'ysinmaslik kabi salbiy xususiyatlar qaror topadi va uning xatti – harakatida bu xususiyatlar ko'rinadi.

O'smir o'quvchining e'tiborini o'qishdan tashqari ishlarni ham o'ziga jalb qiladi. O'smirda muayyan yo'nalishga ega harakatli o'yinlar qiziqish uyg'otadi. Bu xildagi ishlarda u o'zining shaxsiy sifatlarini namoyish qilish imkoniga ega bo'ladi.

Jamoat ishlariga o'smirlarni jalb etish, ularda ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarini shakllantiradi. O'smir uchun tengdoshlarining e'tibori, jamoaning fikri ota-ona va o'qituvchi fikridan ham ko'proq ta'sir qiladi. Shuning uchun u tengdoshlari o'rasida obro' orttirishga, liderlikka intiladi. Agar o'zini o'qish va jamoa ishlarida ko'rsata olmasa, yomon xulqli o'quvchi bo'lib tanilishi mumkin. Bu esa aksariyat hollarda o'smirni «kriminogan» mikromuhitga tomon yetaklab boradi. Bu kabi holatlarni oldini olishda eng to'g'ri yo'l har bir o'smir uchun o'z kuchi va imkoniyatlariga loyiq jamoa topshirig'ining berilishidir. Shundagina o'smir jamoa uchun kerakli ekanligini anglaydi.

O'smirda his – tuyg'ularni idora qilish layoqati endi – endi shakllana boradi. Bu uning xulqida namoyon bo'ladi. O'zining har narsaga jahli chiqishi, qo'pollik holatlari tez – tez yuz beradi. O'smirlarning bu xususiyati ko'proq bahs – munozara jarayonida ko'zga tashlanadi. Garchi, o'z fikri asosli bo'lmasa – da, uni ma'qullashga urinadi.

13 – 14 yoshlarda o'smirlarda burch hissi, mas'uliyat tuyg'usi o'sadi, bir muncha vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Bu davrda o'smirda maqsadga intilish, o'zi uchun ideal tanlash vujudga keladi. O'smirlarda axloqiy e'tiqod shakllanib, o'ziga xos qarashlar tarkib topa boradi.

Demak, o'smir bilan munosabatda sabr – toqat, vazminlik zarur. Unga mustaqillik berish, buyruq emas, aksincha, maslahat berish bu yoshdagi o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalashning garovidir.

O'spirinlik davri. O'spirinlik davri jismoniy o'sishning tinch davri sanaladi. Shu boisdan, o'smirlardan farqli ravishda o'spirinlar faoliyatida romantik his – tuyg'ulardan ko'ra ko'proq realizm muhim o'rin tutadi.

O'spirinning tana tuzilishidagi organlarning (qo'l, oyoq, ko'krak qafasi, yelka) bir – biriga muvofiqligi o'spirinlik davriga kelib, asta – sekin yo'qola boradi, ularning qomatlari shakllanadi. Tana massasi bilan yurakning hajmi o'rtasidagi munosabatda uyg'unlik, orqa umurtqa suyaklari bilan tananing tuzilishida muvofiqlik vujudga keladi. Muskullarning kuchi va ish qobiliyati ortadi. Ichki sekresiya bezlarining faoliyati muvozanatlashadi. Jinsiy yetilish asosan tugaydi. Ba'zi o'spirinlarda bunday yetilish ortda qoladi. Bunga sabab bolalikda kechirgan og'ir kasalligi, organizmning kuchsiz, nimjon yoki dardchilligi bo'lishi mumkin. Bugungi kunda o'smirlar rivojlanishi (tezlashish) tufayli o'spirinning yetilishi ham tezlashadi va yuqorida qayd etilgan holat deyarli kuzatilmaydi.

O'spirinlarda organlarning tarkib topishi va organizm to'qimalaridagi takomillashish nihoyasiga etadi. Ular jismoniy kuchli, xushbichim va sog'lom bo'lganliklari tufayli tetik va quvnoq hayot kechiradilar. O'spirinlar miya

hujayralarining tuzilishida ro'y bergan takomillashish, asab tizimi va faoliyati mazmunining o'zgarishiga olib keladi.

O'spirin faoliyatining asosiy turi o'qish bo'lib qolaveradi. Bilimlar hajmi kengayadi. Ular ijtimoiy munosabatlar, xususan oila, moliyaviy, me'yoriy, ma'muriy, xo'jalik, mehnat hamda jismoniy faoliyatlar mohiyatini teran tushunishga intila boshlaydi. Shu sababli mazkur yosh davrida ularga ijtimoiy – ma'naviy bilimlarni berish maqsadga muvofiqdir. O'spirin nazariy ma'lumotlar mazmunini tahlil eta olish imkoniga ham ega. Oilaviy, xo'jalik, oldi – sotdi xususidagi munosabatlarni tashkil etish, maishiy va aloqa xizmatlari, shuningdek, jamoat transportidan foydalanish chog'ida ularda ijtimoiy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqish hosil bo'ladi. Ehtiyoj hamda qiziqish o'z – o'zidan ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga bo'lgan rag'batni yuzaga keltiradi.

1.3. Talaba yoshlar ijtimoiy ruhiyatining psixologik manbalarda o'rganilishi

Hozirgi zamon talaba yoshlariga barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, bunday sharoitlardan yoshlarimizning unumli foydalanishlari barcha jabhalarda o'z kuchini kursatmoqda. Yoshlar ta'lim muassasalarida bir qator ijodiy ishlarni ham amalga oshirmoqdalar. O'zbekistonda bo'layotgan o'zgarishlarga yoshlarning ham hissalari bor. Fan sohasida, sport sohasida, san'at, texnika va boshqa sohalarda yoshlarimizning faolligi sezilmoqda.

Talaba yoshlarning ijtimoiy ruhiyati borasida ko'plab olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Ushbu tadqiqotlarda yoshlarning har tomonlama rivoji, yoshlarga xos psixologik o'sish, yoshlarning faollik darajalari, yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashishlari, yoshlar xarakterining o'ziga xos jihatlari, yoshlarda motivlarning ko'rinishi kabi bir qator jihatlari olimlar tomonidan o'rganilgan va hozirda ham o'rganilmoqda. Shu o'rinda talabalarga xos motivlarga to'xtalsak. Chunki motivlar insonni har qanday faoliyatda faollikka undaydi.

Motiv - bu asos, asoslanish ma'nosini anglatadi. Bunda “undovchi kuch” psixologik asos hisoblanadi. Motivlarni hosil qiluvchi esa ehtiyojdir. Motiv – bu inson xulq-atvorining ichki psixologik sababi. Motivatsiya - bu insonning xulq-

atvori, hatti-harakatlarining fiziologik va psixologik boshqarishi dinamik barqarorligidir. Ehtiyojlar esa individual, organizmni shaxsni hozirgi paytda biror narsaga bo'lgan zaruriyati.

Amerika psixologi A.Maslou nazariyasiga ko'ra ehtiyojlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Fiziologik ehtiyojlar;
2. O'z-o'zini himoya qilish;
3. Biror kishi yoki narsaga berilganligi;
4. Izzat-hurmatga bo'lgan ehtiyoj;
5. Bilimga bo'lgan ehtiyoj;
6. O'z-o'zini faollashtirishga bo'lgan ehtiyoj;

Motivatsiya nazariyasiga esa quyidagilar kiradi:

1. Instinklar nazariyasi Ch.Darvin.
2. Ehtiyojlar nazariyasi A.Maslau.
3. Kognitiv nazariyasi Leontyev.

Talaba faoliyatining motivlari to'g'risida muammolar chet ellik olimlardan E.Torndeyk, Z.Freyd, U.Mandougoll, U.Kennedi, G.Vilnatt, S.Tomksohn, R.Vudvorst, J.Bremer, E.Keron, A.Maslou, G.Ompport, K.Rojjers, G.Kell, V.Vunt, G.Rozenfeld kabilar asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, Mardougoll motivatsion omil sifatida hayvonlardagi organik ehtiyojlarni, instinktini odamlarga nisbatan qo'llay boshlaydi. Bu inson xulq, fe'l-atvoriga bo'lgan qarashlari birinchi nazariya sifatida maydonga chiqadi, va ikki yangi yo'nalish paydo bo'ldi:

1. Motivatsiyaning hulqiy nazariyasi
2. Oliy asab faoliyati nazariyasidir.

Xulqiy konsepsiyada D.Uotson xulqni tushuntiradigan g'oyalarining mantiqiy davomi sifatida maydonga chiqdi. Motivni affektiv-kognitiv tuzilma deb ta'riflash V.Vuntda ham uchraydi. Zamonaviy kognitiv psixologiyada inson xulqi qo'zg'atuvchilarning tabiatini affektiv-kognitiv tushunish g'oyasi J.Kyuttenda ham uchraydi. U insonlardagi xulq rejalari, vazifalari va axborotlar hosil qilinadi, deb hisoblaydilar. Inson xalqi affektiv kognitiv determinatsiyasi muammosini tahlil

qila turib, kognitiv psixologiyaning boshqa vakili K.Kenxauzen shunday xulosaga keladiki, faoliyat determinatsiyasi kogniti va affektiv sath (aspekt) bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekan. Talabalarning ta'limi faoliyatini motivatsiyalash haqida fikr yuritgan. G'.Rozenfeldlarning fikricha bu ish amalga oshiriladigan vaziyatni, yo'naltirishni hisobga oladigan yoki tabiiy sharoitga mos kelishi lozim. Chunki, sun'iy shart-sharoit, muhim shaxsiy xususiyatlarning yuzaga chiqishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kognitiv psixologiyaning qator vakillari ichki va tashqi motivlarni shunday tushuntiriladi. Masalan, E.Deyn ichki motivlarni tug'ma, tug'ilishga xos bo'lgan motivlar deb ta'riflaydi. Uning fikricha, hamma odamlar kompetentlik va o'z-o'zini belgilashga nisbatan differensiyalashmagan zaruriyat bilan birga tug'iladilar.

Gumanistik psixologiya vakillaridan bo'lmish, A.Maslou, G.Ollport, K.Rodgers va boshqalar motivlarni ichki va tashqi deb bo'lishni sub'yekt faoliyatida qatnashish darajasiga qarab bo'lish kerak, deydilar. Ichki va tashqi motivlarni shunday tushunishga yaqin fikrlarni topish mumkin. U ichki motivni sub'yektning o'z "meni" bilan masalani hal qilishga jalb qilish deb hisoblaydi. B.Smenoza affekt haqida yozib inson uchun aql bilan ish ko'rish, foydaliroq degan edi.

Biroq u inson xulqi determinatsiyasida affektiv va kognitiv elementlarning yagona vazifasini tan olgan, affekt kabi aql ham inson harakatini belgilaydi. Insonlarning motivatsion omili sifatida ehtiyojlar, instinktlar insonning fe'l-atvorlari, mayllari, qiziqishlari, o'qish jarayonida rag'batlantirish va jazolash, maqto'v va tanbehning ahamiyatini o'qish motivlari asosi deb ta'riflagan. Talaba yoshning ichki va tashqi motivlarini psixoanalitik konsepsiya doirasida motivlarning kelib chiqishi, ularning ichki tug'ma yoki tashqi keyin o'zlashtirib olingan motivlarga ajratiladi. Ko'p psixologlar fikricha, ta'lim va talabalarning kasb tanlashini motivatsiyalash muammosi shaxs psixologiyasining markaziy muammolaridan hisoblanadi. Shaxsning psixologik jihatdan shakllanishining yaxlitligi shaxsiy xulq va uni harakatga keltiruvchi kuchlar o'rtasidagi ma'lum bog'liqlik motivatsiya muammosini tadqiq qilishga bo'lgan muntazam

yondashuvni qo'llash uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Talaba yoshning psixologiyasiga oid tadqiqotlar XX asrdan boshlab keng ko'lamda amalga oshirilib kelinmoqda. Bu sohada hamdo'stlik mamlakatlarining psixologlaridan S.A.Rubenshteyn, A.Vigotskiy, A.Leontyev, B.G.Ananyev, L.Bojovich, T.Yakobson, A.Zaporojets, M.Matyujina va boshqa olimlarning xizmati kattadir. A.Leontev motivning zaruriy predmeti deb tariflab, motiv inson faoliyatini yo'naltiradigan ashyoviy tabiatini ta'kidlaydi. Motivni affektiv va kognitiv ravishda tushunish psixologiya taraqqiyotida murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tib, hozirgi vaqtda talabalarning o'qish motivatsiyasini diagnostika va korreksiyalash vazifalarini hal etishda boshlang'ich nuqta bo'lib qolishi kerak. O'qish motivatsiyasini diagnostika va korreksiyasi muammosiga faol yondashuvi, motivi o'qish faoliyatidagi tuzilish elementlari sifatida o'rganish imkoniyati va zaruriyati hisoblanadi. Agar ijtimoiy motivlar ta'lim faoliyati uchun yetakchi hisoblansa, bir qator mualliflar ta'lim faoliyatiga nisbatan ularga tashki motivlar sifatida qarashadi. S.Rubenshteyn "ichki" va "tashqi" degan tushunchalar bilan aloqador bo'lgan ichki toifa motivlarni ajratadi. Bu narsaning mazmunga bo'lgan qiziqish va bo'lg'usida faoliyat bilan bog'liq narsaga nisbatan bevosita qiziqishdir. G.Galperin fikricha, tashqi motivlar ta'lim jarayoni va predmetiga nisbatan amaliy munosabatda namoyon bo'ladi.

V.A.Krutetskiiy talaba yoshlarda uchrashi mumkin bo'lgan motivlardan quyiladigalarni ko'rsatib o'tadi:

1. Biror fanga va kasbga qiziqishlari;
2. Oilaviy an'anaga rioya qilish;
3. Do'stlari-o'rtoqlaridan o'rnak olish;
4. Moddiy ta'minlanganlik..

Bundan tashqari, talaba yoshlarda boshqa turdagi kasb tanlash motivlari ham mavjud bo'ladi. Ular qatoriga shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi o'z oldiga qo'ygan maqsadi, ularga intilishi, qobiliyati, kasb to'g'risidagi ma'lumoti, uning salomatligi, asab tizimining xususiyati va temperamentining xususiyatlari kabi motivlarni sanab o'tish mumkin.

Talaba yoshlarga ko'pincha ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi va bu omillar ularning kasbiy niyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Talaba yoshlar barcha narsalardan ham xabardor bo'lavermaydi. Ko'pincha ular jamiyatga zarur narsalar bilan ham, kasblar bilan ham, kam tanish bo'ladigan yoki ular haqida tasavvurlari yetarli bo'lmaydi. Klimov kasb tanlashdagi xatolarni quyidagilarga ajratadi:

O'spirin yigit va qizlar kasblarni munosib va nomunosib kasblarga bo'ladilar. O'xshash hodisalarga bir xil qarash maktabdagi, mehnat ustaxonalaridagi faoliyat o'quvchilarni kasb tanlashga moyilligini tug'diradi. Bizni o'rab turgan kollektivning fikrini hurmat qilish, bizda katta taassurot qoldiradi. Shu sababli, ba'zi o'spirinlarda o'rtoqlari ta'siri ostida kasb tanlash yuzaga keladi. Kasblarning xususiyatlariga qarab tasniflash va ularni ma'lum tartibga solib sistemali ravishda tasniflashga erishish. Psixolog M.Davletshin kasb tanlashning 3 bosqichidan kelib chiqqan holda kasb maorifi, kasbiy maslahat, kasbga yo'naltirish shaxsning hunarga layoqatini ichki tomonlarini ochishga harakat qiladi:

- Kadrlar tayyorlash davrida shaxsning umumiy yaroqligi layoqati.
- Kasb-hunar tanlashda shaxsning uning qaysi noyob turiga bog'liqligi.
- Kasbga o'rgatishda shaxs sifatleri shakllantirish imkoniyatlarining mavjudligi haqidagi savollarga javob olishga intiladi.

Muallifning fikricha, talabalarning kasbga yaroqligini aniqlashda uchta muhim narsaga e'tibor qilish maqsadga muvofiqdir:

1. kasbga munosabati;
2. qobiliyati;
3. ko'nikma va malakalari.

Bundan tashqari, o'spirinlarda boshqa turdagi motivlar ham mavjud bo'ladi. Bular qatoriga shaxsning biror fanga, kasbga moyilligi o'z oldiga qo'ygan maqsadi, ularga intilish, kasb to'g'risidagi ma'lumoti, uning sihat-salomatligi kabi motivlarini sanab o'tish mumkin. Masalan, o'spirinning mehnat motivlashtirishni tahlil qilib, uning xususiyatlaridan biri bo'lgan barqarorlik motivlashtirishga murojaat qilaylik. Ijodiy topshiriqlarning bajarilishini barqaror motivlashtirish,

keyinchalik ko'pchilik qiziqishlar, shu uslubda namoyon bo'lishi mustaqil tashabbuskorlikka olib kelishi mumkin. Tashqi taassurotlar tufayli vujudga keladigan ijobiy motivlashtirishning vaziyatga xos namoyon bo'lishi odatda sub'yektning ichki, avvalo aqliy va ehtirosli faolligi bilan quvvatlanmay tezda so'nib qoladi. Ma'lumki, mehnatda qoniqarli natijalarga erishilgan chog'dagi muvaffaqiyat nash'asi ijobiy xisseyotlar bilan uyg'unlashib ketadi.. bu xisseyotlar esa o'z navbatida odamni boshlagan ishini davom ettirishga rag'batlantirish mumkin. O'spiringa ko'pgina ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi va bu omillar ularning kasbiy niyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Inson kasb tanlaganda, yoki boshqa har qanday ishni tanlab bajarish sharoitiga ega bo'lganda, u ko'pincha o'zining ichki his-tuyg'ulari, dunyoqarashida shakllangan turli xil qadriyatlarni va boshqa hissiy hislatlarni hisobga oladi va shularga tayanadi.

O'qituvchi kasbi bilan bog'liq sifatlarni dars jarayonida namoyon qiladi. O'spirinlarning psixologiyasini to'g'ri ravon yo'lga solishda o'qituvchining o'rni katta. Har bir kasb o'qituvchisi o'tayotgan dars mazmunidan ta'sirlanishi o'zidagi bu holatni talabaga ko'chirib, talaba yoshlar qalbini to'lqinlashtirib, ularda oliy janob axloqiy sifatlarni o'stirishni bilishi lozim. Shu tarzda o'qituvchi o'zi bilmagan holda talabalarni pedagogik kasbga ham yo'llaydi.

Talabalarda kasbga nisbatan qiziqish paydo bo'lishi uning emotsional erkin va jonli bo'lishi o'qituvchi tomonidan berilayotgan fanlarning, turmushning turli sohalarida ahamiyatini, bilimdonlarning kelgusida kasb egallash va ma'lumotni oshirish uchun zarurligini talabalar anglab olishlari muhimdir. Kuzatishlarga qaraganda kasb haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bir qator bosqichlardan iborat bo'lib, har bir yosh davridagi bolalar va o'spirinlarda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Masalan,

- birinchi bosqich, tayyorgarlik bosqichi bo'lg'usi kasb haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

- ikkinchi bosqich, talabalikning kasb haqida chuqurroq tushunishga va bilimlarga ega bo'la boshlaydi.

- uchinchi bosqich, talabalikning yuqori bosqichi kasb haqida tasavvurlar va tushunchalar mustahkamlanib kasbga bo'lgan tayyorgarlikka qisman his etish kuzatiladi.

V.A.Krutetskiy va I.N.Lukin fikricha, ba'zi talabalar juda ham berilib, amaliy ishlarga ahamiyat bermaydilar. Ular ko'p bahs yuritadilar, lekin o'z fikrlarini amalda sinab ko'rishdan qo'rqadilar. Ularning fikrlashida umumlashtirish, mavhumlashtirish ustun turadi. Bunday guruh talabalari yaxshi gapiradilar, isbotlab beradilar, yakunlar yasaydilar. Ular aqliy faoliyat bilan ko'proq shug'ullanadilar. O'z bilimini mustaqil kengashtirishga harakat qiladilar. Lekin nazariyani amaliyotga bog'lay olmaydilar. Bu guruhga, ko'proq ijtimoiy fanlarga qiziquvchi talabalarni kiritish mumkin.

Ba'zi talabalarning esa o'zining o'quv faoliyatida nazariya bilan amaliyotni qo'shib olib boruvchi, bilimi keng bo'ladi. Ular jamoa ishlarida aktiv, lekin bu guruhdagilar hamma narsaga baravar qiziqadilar. Ular alohida bir narsaga chuqurroq qiziqmaydilar.

Amerikalik psixolog R.Kulen o'spirinlik davri haqidagi beogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o'spirinlik davri ijtimoiy axloqiy kategoriya degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, o'spirinlik davrida 3 ta asosiy ijtimoiy axloqiy tamoyil mavjud bo'lib, ular:

- emansilatsiya xatolar ta'siridan qutilish;
- mustaqillikka erishish;
- hayot yo'li va kasb-hunar tanlashga jiddiy munosabatda bo'lish, zarur ijtimoiy axloqiy normalarni o'zlashtirishdan iboratdir.

Talabalik davriga yetgan har bir o'spirin 3 ta kuchli va inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan 3 ta oqimga duch keladi. Ular quyidagilar:

1. jismoniy
2. ruhiy.
3. ijtimoiy ma'naviy

G.A.Klimovning yaratgan sxemasi bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. U quyidagi kasb turlarini tadbqiq qiladi:

1. Agronom, zootexnik, polizchi, chorvador, asalarichi, biolog, mutaxassisligi **“inson va tabiat”**

2. Injener, konstruktor, radio-texnik, slesar, tokor texnika mutaxassisligi **“inson va texnika”**

3. O'qituvchi, tarbiyachi, hamshira, sotuvchi, ofitsiant, tashkilotchi mutaxassisligi **“inson-inson”**.

4. Musiqachi, badiiy bezovchi, modelyer, dizayner, bastakor yozuvchi, rassom mutaxassisligi **“inson va badiiy obraz”**.

Bularni tahlil qiladigan bo'lsak, kasblarni tabiatga xizmat qilishga, insonga xizmat qilishga va badiiy obrazlar ustida ishlashga doir kasblarga ajratish mumkin, lekin, mazkur kasblar tasnifida ularning ko'pchiligi ifodalanmagan. Ana shu guruhlariga o'nlab yondosh kasb-hunarni kiritish mumkin.

Kasb tanlashda o'spirin yigit-qizlarda qator maqsadlar vujudga kelishi mumkin. Dastlabki maqsad – “bosh maqsad”- deb ataladi va “u umumxalq mehnatiga o'z ulushini qo'sha olamanmi, qanday inson bo'lib yetishaman. Hayot va faoliyat ideallarim nimalar bo'lishi lozim,”- degan fikrlardan iborat bo'ladi. Yaqin va yaqqol maqsad – dastlabki faoliyat sohasi, mutaxassislikni qanday va qayerda egallash, o'qishni tugatgach dastlabki mehnat faoliyat qaysi lavozimdan boshlanishi, mehnat mahoratini oshirish istiqbollari haqidagi mulohazalardan tashkil topadi. Psixologik nuqtai-nazardan maqsadga erishishning tashqi va ichki shart-sharoitlari mavjud. Tashqi sharoitlarga maqsad yo'lidagi har xil qiyinchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar mazkur muassasa yoki tashkilotning imkoniyatlari, muayyan sub'yektga yoki kasb egasiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan qarshiligi va hokazolar kiradi. Maqsadga erishishning ichki shart-sharoitlariga shaxsning imkoniyatlari, uning sog'lomligi, aqliy qobiliyati, tirishqoqligi, irodaviy sifatleri (chidamliligi, sabr-toqati, tanlagan kasbi bo'yicha ishlashi uchun zarur vaziyatlari) va hokazolar kiradi. Ma'lumotlarga qaraganda, pedagogika kolleji talabalarining ko'pchiligi o'qituvchilik kasbini yoqtirib o'qishga kirgan. Ularning ayrimlari esa pedagogika kollejiga tasodifan kirib qolgan, biroq bu oliy o'quv yurtiga o'z hohishi bilan kirgan talabalar orasida ham har xil mulohazalar mavjud.

Pedagog kasbini yoqtirib o'qishga kirgan talabalarning chorak qismi faqat olgan bilimlarini boshqalarga o'rgatish maqsadini bildirgan bo'lsalar, yana shuncha talabalar universitetda o'qitilayotgan biror fanni sevganlari uchun o'qishga kirganini aytgan. Talabalarning beshdan bir qismi bolalarni chin ko'ngildan yaxshi ko'rgani uchun o'qituvchilik kasbini tanlagan. Mehnat psixologiyasining mutaxassislari kasbga yo'naltirishning boshqa usullarini:

- barcha fanlarni o'qitishning politexnik jihatini chuqurlashtirishni;
- tabiiy matematik fanlarida atrofdagi ishlab chiqarishdan ob'yekt sifatida foydalanishni;
- ijtimoiy turkumdagi fanlarni o'qitishda o'lkashunos materiallarini qo'llab, talabalarning kasbga qiziqishini oshirish, mehnatga ishtiyoqini uyg'otishni;
- mehnat sohalari bilan talabalarning mustaqil ta'limi uchun sharoit yaratishni tavsiya etmoqdalar.

II-Bob.Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyatida bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganishning mohiyati

2.1. Talabalarda ijtimoiy tarbiyani tarkib toptirishda ijtimoiy psixologiya fanining o'rni va ahamiyati

Ijtimoiy tarbiya masalasi har doim olimlarni qiziqtirib kegan. Ijtimoiy tarbiyaning boshi oila hisoblanadi. Oila tarbiyasi inson uchun eng muhim tarbiya bo'lib, bolaning oilada olgan tarbiyasini o'zgartirib bo'lmaydi. Ijtimoiy tarbiya masalasi ijtimoiy psixologiya sohasda o'rganiladi. Ijtimoiy psixologiya juda qadimiy va shuning bilan birga u o'ta navqiron fandir. Uning qadimiyligi insoniyat tarixi, madaniyati va ma'naviyatining qadimiy ildizlari bilan belgilanadi. Ular aslini olib qaraganda, u yoki bu jamiyatda yashagan kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning va tafakkurning xosilasi ekanligi bilan e'tirof etilsa, u - o'z uslubiyoti, predmeti va fanlar tizimida tutgan o'rnining yangiligi insoniyat taraqqiyotining eng yangi davrida shakllanganligi va rivojiga turtki berganligi bilan tavsiflanadi. Darhaqiqat, ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida tan olinishi xususida so'z borar ekan, uning rasman e'tirof etilishi 1908 yil deyiladi. Chunki aynan shu yili ingliz olimi V. Makdugall o'zining "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" kitobini, amerikalik sosiolog E.Ross esa "Ijtimoiy psixologiya", deb nomlangan kitobini chop ettirgan edi. Bu asarlarda birinchi marta alohida fan - ijtimoiy psixologiyaning mavjudligi tan olindi va uning predmetiga ta'rif berildi. Ikkala muallif ham - biri psixolog, ikkinchisi sosiolog bo'lishiga qaramay, bu fanning asosiy predmeti ijtimoiy taraqqiyot hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlarini uyg'unlikda o'rganishdir, degan umumiy xulosaga kelishgan.

Rus olimasi G.M.Andreyeva ta'kidlaganidek, ijtimoiy psixologiya sohasida ishlayotgan mutaxassisning aslida kim ekanligi - psixologmi, faylasufmi yoki sosiologmi - uning ushbu fan predmetiga yondashuvida o'z aksini topadi, chunki agar u sosiolog bo'lsa, ijtimoiy qonuniyatlarni avval boshdan jamiyatdagi an'analar va umumiy qoidalar tilida tushuntirishga intilsa, psixolog - konkret olingan shaxe psixologiyasining qonuniyatlarini umumjamiyat qonun-qoidalariga tadbiq etishga harakat qiladi. Shuning uchun ham G.Andreyeva ijtimoiy

psixologiyaning mavzu bahsi haqidagi hozirgi zamon qarashlarini umumlashtirib, bu o'rinda uch xil yondashish: sosiologik, psixologik, ham sosiologik va psixologik mavjud ekanligini asoslaydi. Nima bo'lganda ham, shuni asosli tarzda e'tirof etish zarurki, ijtimoiy psixologiyaning alohida fan bo'lib ajralib chiqishiga sabab bo'lgan ilmiy manbalar ikki fan - psixologiya va sosiologiya fanlarining erishgan yutuqlari va har qaysisining doirasida ma'lum muammolarning yechilishi uchun yana qo'shimcha alohida fanning bo'lishi lozimligini tan olish tufayli yuzaga keldi. Shuning uchun ham uzoq yillar mobaynida ijtimoiy psixologiya sohasida tadqiqotlar olib borayotgan shaxsning kimligiga qarab, izlanishlarning natijalarida u yoki bu yondashuv - psixologik yoki sosiologik yondashuvning ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlandi. Demak, bu fanning tug'ilishi, o'z predmeti sohasini aniqlab olishiga sabab bo'lgan sosiologiya va psixologiya fanlaridir va bu fanlar aslida uning "ota-onalaridir"

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanganligining, ilmiy jihatdan esa, falsafiy qarashlar ta'sirida bo'lib, sof ijtimoiy psixologik nazariyalarning juda oz sonli bo'lganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Insoniyat tarixini o'rganar ekanmiz mutafakkirlar, olimlar, allomalar ijtimoiy psixologik hodisalar bilan juda qiziqqanliklarini kuzatamiz. Lekin ular bu hodisalarni o'z davri ruhida, o'z nazariy va ijtimoiy qarashlari, hattoki, turli oqimlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyaning fan sifatidagi taraqqiyotini o'rganish uchun ijtimoiy psixologik muammolar yoritilgan asar yoki kashfiyotchining yashagan davri, uning siyosiy qarashlari, jamiyatning taraqqiyot xususiyatlarini ham o'rganish lozim. Ilmiy manbalar ijtimoiy psixologiyaning davlat va huquq nazariyasi, siyosiy iqtisod, etika, falsafa fanlarining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, fan taraqqiyotiga falsafa fani o'zining sezilarli ulushini qo'shgan. Shuning uchun ham amerikalik olim G. Olport ijtimoiy psixologik g'oyalarning yaratilishi va

rivojlanishi falsafa bilan, uning ko'zga ko'ringan arboblaridan hisoblangan Platon nomi bilan bog'liq deb yozgan edi.

Platon o'zining "Davlat" va "Qonunlar" deb atalgan dialoglarida shaxsning jamiyat bilan aloqalari masalasiga to'xtalib, jamiyat individga nisbatan o'zgarmas bir birlikki, uning taraqqiyoti jamiyat rivojlanishi qonunlariga bo'ysunadi, degan fikrni himoya qilgan. Unga qarama-qarshi fikrni Aristotel bayon etib, individni barcha ijtimoiy o'zgarishlarning sababchisi, chunki unda bunga imkon beruvchi psixologik tizimlar bor, deb yozadi. Ya'ni, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat masalasi Platonda jamiyat foydasiga hal bo'lgan bo'lsa, Aristotelda bu narsa shaxs foydasiga yechilgan. Ulardan keyingi — yangi davr faylasuflari — Gobbs, Gelvesiy, Lokk, Russo, Gegel, Makiavelli, sharq faylasuflaridan Beruniy, Forobiylar ham barcha asarlarida shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklarini ilmiy asosda sharhlashga urindilar, lekin hych qaysisi bu muammoni ijtimoiy psixologik muammo darajasiga ko'tara olmadi.

XIX asrning o'rtalariga kelib, kapitalistik munosabatlarning keskinlashuvi, turli davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarning tobora o'sib borishi, turli xalqlarning bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'chishi—migrasiya munosabati bilan qator ijtimoiy fanlar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar paydo bo'ldi.

Shu o'rinda ijtimoiy psixologiyaning ilmiy manbalaridan biri bo'lgan sosiologiya fanining xizmatini ko'rsatmay bo'lmaydi. Sosiologiyaning asoschilari hisoblangan Ogyust Kont, Gerbert Spenser va boshqalar, masalan, jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarni o'rganish uchun albatta, o'ziga xos, ayrim psixologik xolatlarni o'rganmoq lozim, degan fikrni qat'iy turib isbot qildilar. Ular har bir ijtimoiy voqyeada ruhiy hodisalar borligini isbot qilishga urindilar. Masalan, fransuz sosiologi G. Tard har bir individda "ijtimoiy fakt" borligini, bu narsa uning miya doirasidagina emas, balki bir qancha miyalar aloqasi tufayli mavjuddir, deb hisoblaydi. Ijtimoiy xulq-atvor modeli, uning fikricha, doimo individlararo munosabatni o'z ichiga olib, bunda bir individ boshqa individga doimo taqlid qiladi, shuning uchun ham shaxsni o'rganish boshqa shaxslarni inkor qilmasligini talab qiladi. Shunday qilib, sosiologiyada psixologik yo'nalish paydo bo'ldi.

Tarddan keyin L. Uord, F. Giddings va boshqalar ijtimoiylik qonunlarini jamoa ruhiy holati bilan uzviy ravishda o'rgana boshladilar. Ularning fikricha, ijtimoiy fakt — bu ijtimoiy aql, tafakkur bo'lib, u "jamiyat psixologiyasi" yoki sosiologiyaning bahs mavzuidir.

Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan ilmiy-falsafiy, ijtimoiy manbalar, shart-sharoitlar tufayli ijtimoiy-psixologik g'oyalar shakllanib bordi. Bu qarashlar sof psixologiyaga ham o'xshamagan, sosiologiya doirasidan chiqib ketadigan alohida fanning—ijtimoiy psixologiyaning paydo bo'lishi uchun zamin rolini o'tadi.

XX asr shu bilan xarakterli ediki, u turli fanlar oldiga konkret topshiriqlar qo'ya boshladi. Shuning uchun psixologiya fani oldida tadqiqotlar asosida psixologik qonuniyatlarni asoslash vazifasi turar edi. Ikkinchidan esa, Amerikada ko'pgina psixologlar o'z tadqiqot obyektlarini laboratoriyalarda ayrim psixik jarayonlarni o'rganishdan kichik guruhlariga ko'chira boshladilar. Bu davrda psixologiyada shakllanib bo'lgan uch asosiy oqim (psixozanaliz, bixeviorizm va geshtalt psixologiya) ichida ham ijtimoiy xulq-atvorni kichik guruhlar doirasida o'rganish tendensiyasi paydo bo'ldi. Bunda asosiy diqqat kichik guruhlariga va ularda turlicha eksperimentlar o'tkazishga qaratilgan edi. Bunday holatning paydo bo'lganligi ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishida nihoyatda katta rol o'ynadi.

Geshtald psixologiya yo'nalishi negizida maxsus ijtimoiy psixologik yo'nalishlarning — interaksionizm va kognitivizmning paydo bo'lganligi esa bu fanning eksperimental ekanligini yana bir bor isbot qildi.

Bixeviorizm yo'nalishlari doirasida o'tkazilgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar avvalo amerikalik olimlar K. Xoll va V. Skinnerlar nomi bilan bog'liq. Ular va ularning izdoshlari hisoblangan K. Miller, D. Dollard, Dj. Ribo, G. Kelli va boshqalar diada — ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xil eksperimental ko'rinishlarini tadqiq qilib, ularda matematik o'yin nazariyasi elementlarini kuzatdilar. Diada sharoitida tajribada o'tkazilgan tadqiqotlarda asosan mustahkamlash g'oyasini isbot qilishga urinildi. Klassik bixeviorizmdan

farqli o'laroq ijtimoiy psixologik bixevioristlar hayvonlar o'rniga laboratoriyaga naqd pulga odamlarni taklif eta boshladilar, shuning uchun ham ularning g'oyasida biologizm va mexanizm tarzda ilgari hayvonlarda to'plangan dalillar modelini insonlarda qo'llash hollari kuzatildi.

Psixanaliz doirasida esa ijtimoiy psixologik tadqiqotlar E. Fromm va Dj. Salliven ishlari bilan bog'liq bixevioristlardan farqli o'laroq bu yerda eksperimentlar ikki kishi emas, balki ko'pchilik ishtirokida o'tkazila boshladi. Ularning izdoshlari (V. Bayon, V. Bennis, G. Sheparde, V. Shutk) o'tkazgan tadqiqotlar tufayli hozirgi kunda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotgan kichik T—guruhlar psixologiyasi yaratildi. Unda guruh sharoitida bir odamning boshqalarga ta'siri, guruhning ayrim individlar fikrlariga ta'siri kabi masalalar ishlab chiqildi va ijtimoiy psixologik treninglar o'tkazishga asos solindi.

Kognitivizm K. Levin nazariyasi asosida paydo bo'lgan psixologik yo'nalish bo'lib, undagi o'rganish obyekti munosabatlar tizimidagi kishilar, ularning bilish jarayonlari, ong tizimiga taalluqli bo'lgan kognetiv holatlar bo'ldi. Kognitivizm doirasida shunday mukammal, boshqalarga o'xshamas nazariyalar yaratildiki, ular hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Masalan, F. Xaydarning balanslashtirilgan tizimlar nazariyasi, T. Nyukomning kommunikativ aktlar nazariyasi, Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ulardagi asosiy g'oya shundan iboratki, shaxs o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqotga kirishar ekan, doimo munosabatlarda ruhiy mutanosiblik tenglik bo'lishiga, shu tufayli ziddiyatlardan chiqishga harakat qiladi. Maqsad — turli ijtimoiy sharoitlarda shaxs xulq-atvorining psixologik sabablarini tushuntirish va ziddiyatlarning oldini olish uchun yo'l-yo'riqlar ishlab chiqishdan iborat. Hozirgi davrda ham taniqli ijtimoiy psixologlar Olport, Maslou, K Rodjers va ularning safdoshlari gumanistik psixologiya doirasida bu ishlarni faol davom ettirmoqdalar.

Navbatdagi nazariya interaksionizm bo'lib, bu aslida sosiologik nazariya bo'lib hisoblanadi. Uning asoschisi Gerbart Mid bo'lib, uning qarashlari ta'sirida T. Sarbinning rollar nazariyasi, G. Xaymen va R. Mertonlarning referent

guruhlar nazariyasi, F. Gofmanning ijtimoiy dramaturgiya nazariyalari shakllandi. Ular turli ijtimoiy sharoitlardagi xulq-atvorlarni tushuntirish orqali shaxs ijtimoiy psixologik sifatlarining sabablarini topishga harakat qildilar. Har bir shaxs doimo ijtimoiy o'zaro ta'sir tizimida mavjud bo'ladiki, unda u to'g'ri harakat qilish uchun o'zgalarni tushunishga harakat qilishi, o'zgalar rolini qabul qilishga tayyor bo'lishi lozim. Lekin o'zgalar rolini to'g'ri qabul qilish uchun unda "umumlashtirilgan o'zga" obrazi bo'lishi lozimki, bu obraz shaxslararo muloqot jarayonida, har bir shaxs uchun ibratli bo'lgan kishilar guruhi bilan muloqotda bo'lish jarayonida shakllanadi. Ya'ni shaxs faolligi tan olinadi, bu esa fan tarixida o'ta progressiv hol edi.

19 asrning oxiri va 20 asr boshlarida fanda uch nazariya paydo bo'ldiki, ular haqli ravishda ijtimoiy psixologiyaning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Bu uch nazariyani birlashtirib turgan narsa shu bo'ldiki, ularning har biri mustaqil tarzda shaxs bilan jamiyat munosabatini ilmiy asosda tushuntirishni izlanishlarning asosiy mavzusi deb hisobladilar. Bu uch manba - xalqlar psixologiyasi, omma psixologiyasi va ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyalaridir.

Xalqlar psixologiyasi nazariyasi ijtimoiy psixologik nazariya sifatida 19 asrning o'rtalarida Germaniyada shakllandi. Undagi asosiy g'oya shu ediki, ayrim individlardan yuqori turadigan ruh mavjud bo'lib, bu ruh o'zidan ham yuqori turadigan ilohiy yaxlitlikka bo'ysunadi. Bu ilohiy yaxlitlik esa xalq yoki millatdir. Ayrim individlar ana shu yaxlitlikning bo'laklari bo'lib, ular bu ruhga bo'ysunadilar. Ya'ni, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshilik muammosi jamiyat foydasiga hal qilinadi. Bu nazariyaning tarixiy-mafkuraviy asosi bo'lib Hegel falsafasi va nemis romantizmi xizmat qilgan. «Xalqlar psixologiyasi» iborasi birinchi marta faylasuf M.Lasarus hamda tilshunos G.Shteyntallarning «Xalqlar psixologiyasi to'g'risida kirish so'zi» kitobida ifodalab berilgan: «Tarixni yurgizuvchi asosiy kuch bu xalq yoki shu yaxlitlikning ruhi bo'lib, bu ruh san'atda, dinda, tilda, afsonalarda, an'analarda o'z aksini topadi. Individning ongi shu yaxlitlikning mahsuli bo'lib, ularning yig'indisi o'z navbatida xalq ongini tashkil

etadi. Xalqlar psixologiyasining vazifasi xalq ruhi mohiyatini o'rganish, xalq ruhiyati konunlarini ochish, xalq psixologiyasiga oid bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarning paydo bo'lishi va yo'nalishini tushuntirib berishdir».

Ushbu kitobda mualliflar shaxs bilan jamiyat munosabati xususida quyidagi mulohazalarini bayon etadilar: «Odam o'z mohiyati jihatidan ijtimoiy mavjudot bo'lib, u jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq, chunki u o'ziga o'xshashlarga qarab rivojlanadi, boshqalarga taqlid qilib harakat qiladi va ular ta'qibidan qochadi...». Xalqlar psixologiyasining asoschilari faqat nazariy mulohazalar yuritish bilan cheklanadilar, chunki ularda o'z fikrlarini isbot qilish uchun tadqiqot ishlari yo'q edi.

"Psixologiyaning otasi" hisoblangan Vilgelm Vundt esa xuddi ana shu tadqiqotga asoslangan ma'lumotlar to'plashga o'z diqqatini qaratdi. U o'zining "Inson va hayvon ruhi haqida leksiylar"i (1863 y) va 1900 yilda bosmadan chiqqan o'n tomli "Xalqlar psixologiyasi" asarlarida asosan o'zi to'plagan empirik ma'lumotlar asosida xalqlar psixologiyasiga bag'ishlangan fikrlari tizimini bayon etdi. Uning fan oldidagi xizmati shundan iborat ediki, empirik ma'lumotlar to'plash usullari, to'plangan manbalarni sharhlash borasida bebaho bilimlar to'pladi. Uning fikricha, psixologiya fani ikki qismdan iborat: fiziologik psixologiya va xalqlar psixologiyasi. Fiziologik psixologiya inson ruhiyatini o'rganuvchi eksperimental fan bo'lib, oliy psixik jarayonlar — tafakkur va nutqdan tashqari barcha narsani tajriba usulida tadqiq etish mumkin. Tajriba usulida o'rganib bo'lmaydigan barcha oliy ruh holatlarini xalqlar psixologiyasi o'rganadi, chunki undagi o'rganish usullari o'ziga xosdir — u madaniy mahsullar hisoblangan til, afsonalar, odatlar, san'at asarlari, inson tafakkurining murakkab tomonlarini ochib beradi.

Shunga qaramay Vundtning qarashlari idealistik asosda bo'lgan, ya'ni u individ bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatni idealistik asosda turib hal qilgan va jamiyatning rolini absolyut tushunib, shaxsning tarixini yaratishdagi, ijtimoiy jarayonlardagi faol o'rnini ko'ra bilmagan. Uning izdoshlari — Rusiyalik A. Potebni, nemis olimi T. Geyger va boshqalar ham u yo'l qo'ygan

mafkuraviy kamchilikni oldini ola olmadilar, lekin ular bir fikrda yakdil edilarki, xalqlar psixologiyasi individual psixologiyadan farq qiladi, shuning uchun ham maxsus fan kerakki, u o'ziga xos usullar yordamida shaxs va jamiyat munosabatlari qonunlarni ochib berishi lozim. Xuddi ana shu xulosalar ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishiga ilmiy asos bo'ldi.

Omma psixologiyasi nazariyasi paydo bo'lishiga tarixiy asos ishchilar sinfining paydo bo'lishi va Yevropada ishchilar harakatining ommaviy tus olishi bo'ldi. Ya'ni, XIX asrning ikkinchi yarmida ishchilar harakati shunday keng tus oldiki, tartibsiz harakatlar uyushgan harakat darajasiga ko'tarildi. Shuning uchun ham shu harakatlarning qonunlarini bilish, ularni boshqarish usullarini o'ylab topish zarur edi.

Ommaviy hodisalarni o'rganish natijasida 1890 yilda Gabriel Tardning «Taqlid qilish qonunlari» deb atalgan birinchi kitobi chiqdi. Tard Fransiyada ro'y berayotgan ommaviy hodisalarni, shu hodisalarda ishtirok etayotganlarning xulq-atvorlarini taqlid qilish orqali tushuntiradi. Bu harakatlar irratsional (ya'ni aqlning ishtirokisiz) tabiatga ega bo'lib, har bir individ ommaga qo'shilgan zahoti unga taqlid qilishga tayyorlik instinkti ustun bo'lib qoladi. Italiyalik huquqshunos S. Sigeli va fransuz olimi G. Lebon ham Tard ishlarini ma'qullab, uning nazariyasini faktik materiallar bilan, ya'ni 1895 yilda bosilib chiqqan Sigelining «Ommaning jinoyatlari» va Lebonning «Omma psixologiyasi» kitoblari orqali boyitdilar. Bu mualliflarning asarlaridagi asosiy g'oya shundan iborat ediki, ommaviy harakatlarda shaxsning o'z xulq-atvorlarini ongli va aql bilan boshqarish qobiliyati yo'qoladi. Bunday holatlarda hissiyotlar ustun keladi, ayniqsa, affekt holatlar, shuning uchun ham affekt holatida ro'y bergan jinoyatga aybni yumshatuvchi holat sabab bo'lgan, deb qarash adolatli bo'ladi. Bu qarashlari tufayli Sigeli Italiyaning qonuniga maxsus modda kiritishga ham erishdi.

Sosiolog Lebon esa asosan diqqatini ommani elitaga — jamiyatdan yuqori turuvchi tanlangan guruhlariga qarshi qo'yishga qaratdi. U ommaning ayrim hollarida, ayniqsa biror hodisa ro'y berganda «qiziqqonlik» xususiyati ustun turishi haqida yozadi. Uning fikricha, bir qancha odamlarning bir yerda to'planishi

ommani hosil qiladi va bu, odamlar kim bo'lishidan qati nazar — olimmi yoki oddiy insonmi, shu zahotiy oq kuzatuvchanlik va ziyraklikni yo'qotadi. Chunki bu holatda ular holatini instinktlar va hissiyotlar boshqaradi. Lebon shaxsning omma holatidagi belgilariga to'xtalib quyidagilarni ajratadi:

1. Shaxsiy sifatlarning yo'qolishi. Boshqa odamlar ta'sirida individ o'ziga xos sifatlarni yo'qotishi, buning o'rniga impulsiv instinktiv harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi.

2. Hissiyotlarga o'ta beriluvchanlik. Ommada aql, tafakkur, hissiyot, instinktlarga o'z o'rnini bo'shatadi. Shuning uchun ham ommaning ta'sirchanligi o'ta oshib ketadi.

3. Aqliy sifatlarning yo'qolishi. Ommaning «aqli» uni tashkil etuvchilar aqlidan ancha past bo'ladi. Shuning uchun ham ommaning taz'viqiga uchramaslik uchun har bir kishi aqlan mulohaza yuritishdan bosh tortishi, munozaradan qochishi lozim.

4. Shaxsiy mas'uliyatning yo'qolishi. Ommaga qo'shilib qolgan shaxs shunchalik hissiyotlarga berilib ketishi mumkinki, u o'z harakatlarini nazorat qilish, o'z ishiga mas'uliyatni esidan chiqaradi. Yakka holda sodir qila olmaydigan ishini, u ommaga qo'shilib qilib qo'yishi mumkin.

Bunday xolatning, ya'ni shaxsning omma orasidagi psixologiyasi to'g'risidagi fikrlarni ayni shunday tarzda Ortegi Gasset va Ernesto Grassilar ham ko'rsatib bergandirlar.

Shunday qilib, omma tartibsiz, u mustaqil ravishda tartib o'rnatish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun ham unga doimo “dohiy” kerak, dohiylar — elita tashqaridan kelib omma o'tasida tartib o'rnatishi mumkin. Bu fikrlarning mafkuraviy ma'nosi tushunarli, chunki omma deganda, ular ishchilar sinfini, dohiylar deganda esa, burjuaziyani nazarda tutishgan. Demak, shaxs va jamiyat ziddiyatlari masalasi omma psixologiyasi tarafdorlari nazariyasida ayrim shaxslar — dohiylar foydasiga hal qilindi. Lekin bu nazariya, nima uchun ommaviy hodisalarda ommaning o'zidan chiqib qoladigan liderlar, ommaning ba'zan tashqaridan hyech kimni tan olmay qolishi masalalariga

umuman javob topa olmadi, chunki ularning ham fikrlarida ko'proq idealizmga moyillik sezilib turardi.

Ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyasi XX asrning boshida Angliyada shakllandi. Uning asoschisi ingliz psixologi Uilyam Makdugall bo'lib, u o'zining 1908 yilda yozgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" kitobidagi inson xulq-atvorlarining motivi yoki uni harakatga keltiruvchi kuch instinktlardir, - deb yozgan. Keyinchalik u instinkt tushunchasi bilan birga layoqat, intilish iboralarini ham ishlata boshladi. Uning fikricha, xulq-atvorni ta'minlovchi narsa tug'ma, psixofiziologik tayyorlik holati bo'lib, u nasldan-naslga uzatiladi. Makdugall barcha harakatlarni refleksiv holda tushuntirishga intilib, refleksiv yoyga xos bo'lgan barcha qismlar — ya'ni efferent qabul qiluvchi, reseptiv bo'lim, efferent (harakat) va markaziy bo'limdan iborat tizim sifatida tasavvur qiladi. Barcha ijtimoiy harakatlar ham ana shunday refleksiv tabiatga egadir, deb uqtiradi u.

Shunga o'xshash fikrlar E. Ross ("Ijtimoiy psixologiya ") va Dj. Bolduin ("Ijtimoiy psixologiya bo'yicha tadqiqotlar") qarashlarida ham rivojlantirilgan. Masalan, Bolduin ikki turli irsiyat xaqida — tabiiy va ijtimoiy irsiyat haqida yozib, ijtimoiy odamlardagi taqlid qilish qobiliyati bilan bog'liq, deb yozadi. Jamiyatda yashayotgan odamlar bir-birlariga ta'sirlarini o'tkazishga moyildirlarki, bu narsa ular o'rtasidagi munosabatlarni boshqarib turadi.

Shunday qilib, bu yo'nalish tarafdorlarining fikricha, barcha ongli harakatlarning boshi — ongsizlikdir, ya'ni instinktlar bo'lib, ular asosan hissiyotlarda namoyon bo'ladi. Hissiyot bilan instinktlar bog'liqligini Makdugall juftliklarda ko'rsatishga harakat qilgan: masalan, kurash instinkti — qo'rquv, g'azab hissi; nasl qoldirish instinkti — rashk ayollardagi tobelik hissi; o'zlashtirish instinkti — xususiylikka intilish hissi va hokazo. Ijtimoiy hodisalarni tushuntirishda tug'ma instinktlar rolining yuqori qo'yganligi uchun bu nazariya ilmiy taraqqiyot bosqichida salbiy o'rin tutdi, deb aytishimiz mumkin. Lekin uning ayrim hodisalar sabablarini tushuntirishga harakat qilishi fan oldiga ulkan vazifalarni qo'ydi. Ijtimoiy psixologiya fan sifatida ana shu muammolarni tadqiq qilishi lozim edi.

Demak, yuqorida to'xtab o'tilgan uchala nazariyaning ahamiyati shundan iborat ediki, ular yangi tug'ilishi lozim bo'lgan fan — ijtimoiy psixologiyaning tadqiqot mavzuini ochib berdi. Qolaversa, bu uchchala yo'nalish ham nazariy qarashlarni isbot qilishda obyektiv tekshiruv usuli hisoblangan eksperimentdan foydalanish zaruriyatini ko'rsatdi. Bu narsa yana bir bor maxsus fanning kelajak rejarini aniqlashga yordam berdi. Ijtimoiy psixologiyaning Rusiya va sobiq ittifoqda rivojlanishi Ijtimoiy psixologiyasining asoschisi deb haqli ravishda V.M. Bexterevni ko'rsatish mumkin. U o'zining refleksologiya nazariyasi doirasidan shaxs xulq-atvorining motivlarini tushuntirishga uringanlardan biridir. Uning fikricha, barcha ongli va ongsiz jarayonlar tashqi xulq-atvorda, harakatlarda ifodalanadi, shuning uchun ham tashqi harakatlarni, qiliqlarni, nutqni, tovushni o'rganish orqali shaxsning o'zini va bu harakatlarning sabablarini o'rganish mumkin. Bexterev asosan sosiologiyani biologiya bilan, psixologiyani esa fiziologiya bilan aralashtirib yubordi, shuning uchun shaxs va jamiyat taraqqiyotining universal qonunlarini aniqlashda chalkashlikka yo'liqdi.

20-30- yillarda bolalar va o'smirlar ijtimoiy psixologik taraqqiyotini o'rganishga qaratilgan ikki yo'nalish paydo bo'ldiki, ular ham qator kamchiliklardan holi bo'la olmadilar. Masalan, biologik yoki biogenetik nazariya tarafdorlari shaxsning shakllanishida irsiy va biologik nasliy omillar yetakchi rol o'ynaydi, deb hisoblashsa, sosiologik yoki sosiogenetik nazariyotchilar bu borada ijtimoiy muhit rolini nihoyatda ortiq ekanligini himoya qilib chiqdilar.

30-yillardagi olimlar shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning, jamoaning rolini, ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini isbotlashga urindilar. Lekin 40—60- yillar ijtimoiy-psixologiya taraqqiyotida nisbatan sokinlik davri bo'ldi. Chunki psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar ichida ijtimoiy psixologik tadqiqotlar yo'q hisob edi. Bu fan Rusiyada va boshqa sobiq ittifoqdosh jumhuriyatlarda 70- yillardan keyin keskin rivojlana boshladi. Bunda moskvalik va leningradlik (hozirgi Sankt-Peterburg) olimlar maktabi katta rol o'ynadi. Agar Moskva shahrida asosan ijtimoiy psixologiya bo'yicha fundamental nazariy tadqiqotlar ko'plab o'tkazilib, unda hozirgi zamon ijtimoiy psixologik

tadqiqotlarning empirik qonunlari asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa, Sankt-Peterburgda ko'proq tadbiqiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borildiki, ular birgalikda minglab yosh ijtimoiy psixologlar avlodini tarbiyalab yetishtirdilar. Ular esa hayotimizga ilg'or fikrlar va dalil tadqiqotlar bilan kirib kelib, hozirgi kun fanini dunyo miqyosida misli ko'rilmagan darajaga ko'tardilar.

O'zbekistonda ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak shuni ta'kidlash lozimki, u oxirgi o'n yilliklar mobaynida shakllanmoqda, xolos. Ayniqsa bu borada psixolog olimlar M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, E.G'oziyev, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov kabilarning bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalarini keltirish mumkin. Lekin tarixan, umuman psixologiyaning O'zbekiston hududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o'ziga xos tarzda shakllanib kelganligini kuzatamiz.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda o'tkazilayotgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan. Bu borada bir qator psixologlardan V.Karimova, G'.Shoumarov boshchiligidagi ilmiy ishlarni keltirish mumkin. Masalan, G.B.Shoumarov boshchiligidagi olimlar tomonidan oilaning ijtimoiy-psixologik vazifalari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, oila negizida yuzaga keladigan hissiy munosabatlar, oila qurish motivlari, oilaning bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillari kabi bir qator jihatlari o'rganildi.

V.Karimova va uning boshchiligidagi ilmiy ishlarida yoshlardagi oila xususidagi tasavvurlar, ularning oila motivlari, oila qurish omillariga munosabatlari, oila turiga ko'ra noto'liq oila muhitidagi shaxs individual-psixologik xususiyatlari, o'z-o'zini baholashi, oila muhitida shaxsda namoyon bo'ladigan feminin va maskulin sifatlar nuqtai nazaridan yondashishlari taxlil etib berilgandir.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri N.Sog'inovning o'zbek oilasiga xos bo'lgan nikoh va oila

munosabatlari - nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila kurishning o'zbeklarga xos bo'lgan yosh xususiyatlari, yosh o'zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o'rgangan ilmiy ishidir.

Lekin O'zbekistonda ijtimoiy psixologlar oldida juda muhim tadqiqot mavzulari mavjudki, ularda hozirgi mustaqillik sharoitida shaxs va turli ijtimoiy guruhlar psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, turli yosh, demografik etnik professional guruhlariga mansub bo'lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari, ular asosida ijtimoiy xulq-atvorni ilmiy boshqarish asoslari ishlab chiqilmog'i lozim. Ya'ni, ishlab chiqarish ijtimoiy psixologiyasi, boshqarish psixologiyasi, guruhlar psixologiyasi hamda ommaviy psixik jarayonlarning ta'siri masalalari o'zbek psixologlaridan o'z yechimini kutmoqdaki, ularda ilg'or fan yutuqlaridan foydalanilgan holda xududning milliy o'ziga xos qirralari ishlab chiqilishi kerak.

2.2. Oilaviy muammolarning shaxs ijtimoiy - psixologik xulqiga ta'siri

Oilaviy muammolar insonning psixologik rivojiga ta'sir o'tkazmay qo'ymaydi. Birinchi o'rinda xulqiga ta'siri ko'zatiladi. Inson xulqining axloqan yetukligiga oilada, oila mustaxkamligida muhim. Buning isboti 2012 yilning "Mustaxkam oila" yili deb atalishidir. "Mustaxkam oila" davlat dasturida keltirilgan bir qator vazifalar aynan oila mustaxkamligini ta'minlashga qaratilgandir.

Oila har bir kishining tug'ilish, tarbiyalanish va yashash dargoxidir. Oiladagi farzandning sog'lom tug'ilishi, sog'lom o'sishi, sog'lom tarbiyalanishi va nihoyat sog'lom fikrli shaxs bo'lib shakllanishi ham oilaga bog'liq. Shuning uchun xam «Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik, tinchlik va hamjixatlilikka erishiladi» (I.A.Karimov).

Oila ijtimoiy institut sifatida shunday tuzilganki, u bir tomondan jamiyatning tarkibiy qismi dyeb qaralsa, ikkinchi tomondan kichik gurux, sifatida qaraladi. Oila shaxsni ijtimoiylashtirish vazifasini bajarishda makro ijtimoiylashuv

miqyosida shaxsga madaniyatning ta'sirini o'z ichiga olsa, mikro ijtimoiylashuv sohasida oila xususiyatlarining shaxsga ta'sirini o'z ichiga oladi.

Jamiyatda paydo bo'ladigan kupgina illatlar (jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik, fohishabozlik, suitsid), ma'lum bir oilalarda tarbiyaviy tomondan yetarlicha e'tibor byerilmasdan o'sib-ulg'aygan, oqibatida dyeviant (og'ma, normadan chyetga chiqadigan) xulqli bo'lib shakllangan shaxslar tomonidan yuzaga kyeladi. Bu esa oiladagi inqirozdan dalolat byeradi.

Oilaviy inqiroz mahsuli bo'lmish dyeviant xulqning bir ko'rinishi bu suitsiddir.

Suitsid (lotincha - «o'zini-o'zi uldirish») - bu o'zini ongli ravishda hayotdan maxrum qilish yoki para suitsid o'zini-o'zi o'ldirishga harakat qilishdir. Inson ijtimoiy-biologik mavjudot bo'lganligi tufayli, uning suitsidal xulk-atvoriga avvalo ijtimoiy- psixologik yondoshuv talab etiladi.

Suitsid - bu shaxsning odatiy qadriyatlaridan va xayot tarzidan ko'ngil olishi, ertangi kunga ishonchning yo'qolishi, fikriy qat'yatsizligi, kiyin (ekstryemal) vaziyatlarda oilasi, yaqinlari tomonidan qo'llab- quvvatlanmasligi oqibatida o'z joniga qasd qilish xulqidir.

Suitsid gyenyezisida oila rolini (shaxs mavjud bulgan eng yaqin ijtimoiy mux,it sifatida) hisobga olish shartdir. Er-xotin, ota-ona va bolalarning oilaviy o'zaro munosabatlari xaraktyeri shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvining shakllanishi va rivojlanishida muxim axamiyatga ega bo'ladi. Shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlarda (er-xotin, kaynona-kyelin, aka-uka, ota-ona va farzand x.k) bir tomonning boshqa tomonni chuchitib kuyish istagi yoinki isyon, «chakirik.» kurinishidagi o'z joniga k,asd K.ILISh xarakatlari xam ko`zatiladi.

Oiladagi nosog'lom mikroijtimoiy ik,lim suitsidal xulkga undashi va uni kuchaytirishi mumkin.

Shu o'rinda fikrim bir yoqlama bo'lmasligi uchun uzunroq bo'lsada, oqila ayollarimizdan biri Ziyoda G'afforovanning fikrlarini keltirishni lozim deb topdim. U shunday deb yozadi: «Ayol ma'naviyati - oila ma'naviyati tushunchasining asosiy uzviy qismi. Tadbirkorlik ham xotin-qizlar uchun nihoyatda zarur. Ammo

ayol tadbirkorligi deganda tor ma'nodagi ishbilarmonliknigina tushunmaslik kerak. Xayot uy bekasidan xar kuni tadbirkorlik, saranjom-sarishtalik, tejamkorlik, oqilona sarf-xarajat talab qiladi. Ro'zg'orning butligi, demakki, oilaning rivojlanishi ko'p jihatdan ayolga bog'liq. Shunday oilalar borki, erkak topib keladi, ammo xotinning rejasiz harajatlari tufayli ro'zg'or baraka ko'rmaydi.

Bir toifa ayollarimiz borki, ular turmush o'rtoqlarining nopok yo'llar bilan pul topib, oila, bola-chaqani moddiy jixatdan ta'minlashayotganini bilib turishadi. Yomon tomoni shundaki, bu ayollarimiz erlarining axloqiy tomondan nopokligini ham bilishsa-da, bunga parvo kilishmaydi. Nega? Chunki bunday ayollar uchun ma'naviy dunyodan ko'ra moddiy dunyo hamma narsadan ustun turadi.

Ba'zi ayollarimiz puldor erlaridan ma'naviy dunyo topolmaganliklaridan ichlarida norozi ham bo'lishadi. Ammo farzandlarining taqdirini o'ylab, ma'naviyatsiz, vafosiz erlarining qilmishlariga sabr-bardosh, bag'rikenglik bilan chidab yashayveradilar»³. Ushbu fikr hozirgi kun oilalariga aynan mos keladi. Bunga zid holatlarda oilalarda turli muammolar sodir bo'ladi.

Quyida, oila a'zolarining o'zini-o'zi uldirish xavfi turiladigan ma'lum oilalarning ijtimoiy-psixologik turlarini kyeltiramiz:

Dyezintyerlashgan oila - oila a'zolarining rasmiy munosabatdaligi, ular orasida emotsional borliklikning yo'qligi. Ayniqsa xavfli vaziyat birlashgan qarindoshlarning bitta a'zoga qarshiligidan yakkalanishidan yuzaga kyeladi.

Supyerintyegrallashgan oila - bunda oila a'zolarining shaxsiy avtonomlik xissi buziladi, ular shu darajada bir-birining hayotiga singib, jipslashib kyetishadiki, bir-biridan ayro yashashni xayoliga xam kyeltira olishmaydi. Bunday oiladagi bir kishining ulimi, boshqa a'zoning umuman yordamsiz, yakkalangan xolga tushiradi va oxirgi chora sifatida uning suitsidni tanlashga olib kyeladi.

Disyurmonik oila - oila a'zolari maqsad, extiyojlar nomutanosibligi, o'zaro kyelishuv va umumiylikning yo'qligi, shaxsiy odatlari va qiziqishlaridan voz kyeichishni istamaslik. Bunday oilalardagi ustunlik qiluvchi a'zo avtoritar usulda

³ Z.G'afforova. Ayol ma'naviyati// Ayolga ehtirom. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 1999, 221-226-betlar.

doimo boshqalarga o'z odatlarini singdirishga harakat qiladi, oilaning barcha a'zolarini ularning qadriyatlariga mos kelyemaydigan xulqda o'zlarini tutishga majbur etadilar.

O'z-o'ziga to'q, yopik oila - bu oila a'zolari uchun oila xayotning yagona mazmuni hisoblanadi, qolgan narsalar esa, ish, oiladan tashqari munosabatlar va xokazolarga oilani qullab-aqvvatlovchi vosita sifatida qaraladi. Bunday oilada yuzaga kelyadigan qandaydir krizis oila a'zolari uchun suitsidal xulqni tug'diruvchi vaziyatga aylanishi xavfini yuzaga kelytiradi.

Konsyervativ oila-tashqi o'zgaruvchan shart-sharoitga moslashmaslik xususiyatiga ega. Agar bunday oilaning bir a'zosini oiladan tashqarida avj olgan nizoli xolatga jalb etib, u bilan ovvora bo'lib qolsa, oilaning boshqa a'zolari o'z konsyervativ ustanovkalarinig kuchi tufayli unga yordamga kyela olmaydilar va bu nizodan uzoqda bo'ladilar yoki o'zlarini raqib tomon sifatida tutadilar. Bunday vaziyatni oiladan tashqaridagi nizoli xolatda bo'lgan shaxs sokinlik sifatida qabul qilishi va bu o'z-o'zini o'ldirishga olib kelyishi mumkin.

Oila shaxsning xar tomonlama rivojlanishida xal etuvchi axamiyatga ega ekanligini nazarda tutsak, suitsidning kelyib chiqishiga sabab bo'luvchi yuqorida kelytirilgan oilaning kurinishlarining yuzaga kelyishi umuman ma'lum bir oilada tarbiyalangan shaxsning psixologik xususiyatlarini shakllanish va rivojlanish sifatlariga borib taqaladi.

Quyida suitsidal xulqning yuzaga kelyishiga ta'sir etuvchi shaxsning psixologik (ruxiy) omillarni kelytiramiz:

- emotsional yaqinlikka intilish extiyojining kyeskin oshishi;
- psixologik ximoya myexanizmining suyet, kuchayish shakllanishi;
- frustratsiyani kuchsizlantiraolmaslik;
- impulsivlik;
- emotsional kat'iyatsizlik;
- kuchli ta'sir o'tkazuvchanlik;
- xayotiy tajribaning yo'qligi;
- o'z-o'zini faxmlashning pastligi;

- aybdorlik xissi;
- ziddiyatlarda emotsiyalarga o'ta byerilish;
- qadriyatlarni kayta tiklashdagi qiyinchilik;
- o'ziga ishonchning sustlashuvi, yo'qolishi;
- yolg'izlik, yordamsizlik xissi;
- umidsizlik xususiyatlari

Ushbu shaxs xaraktyeri xususiyatlarining barchasi shaxsning ruhiy qat'iyatsizligi bilan byevosita bog'liqdir.

Ruhiy qat'iyatsizlik o'z navbatida shaxsning konformlilik sifatiga borib taqaladi. Chunki yuqoridagi barcha psixologik xususiyatlar konformizm xodisasining yuzaga kyelish myexanizmini tashkil etadi. Konformlilik - bu boshqalarga, o'zgalarga zarar qiluvchi yoki ijtimoiy mye'yor va orzu-umidlarni bo'zadigan xatti-harakatlarni, yolg'izlik xissini chyegaralash maqsadida boshqalarga bo'ysunish, yon byerish bilan birga anglanmagan bir tarzda shaxsda, aybdorlik, ta'sir o'tkazuvchanlik, qat'iyatsizlik, o'ziga ishonchsizlik, o'z-o'ziga past baho byerish kabi xususiyatlarning kuchayishiga olib kyeladi.

Shuningdyek, ota-onalarning farzandlar xohish, istaklariga ta'sir kuchining kattaligi, umuman, oilalarda oilaviy munosabatlarning an'anaviy konformizm xodisasi shakllari ko'proq saqlanib qolganligi suitsidal xulqni kyeltirib chiqarishi mumkin.

Shaxsdagi konformlilik xususiyatini susaytirish esa avvalo, oilada bolaga dyemokratik usulda tarbiya byerish, unga shaxsiy hatti-harakatlari, xususiyatlari bilan namuna ko'rsatish, mustaqil fikr yuritishga o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari oiladagi zo'ravonlik ko'pincha oila inqiroziga olib kyeladi. Maktab yoshidagi o'smir-o'spirinlarning suitsid xulqi zamirida oiladagi zo'ravonlikning o'rni jiddiy e'tiborga molik masaladir.

Oiladagi zo'ravonlik juda chuqur ildizlarga ega. Chunki, qadimda oila boshlig'i o'zining oila a'zolari, shu jumladan, ayollar, bolalarga nisbatan ularni jazolash va ularning taqdirini hal qilish mutloq huquqlariga ega bo'lgan. Shu sababli hozirga qadar ayrim shaxslarning ongiga ayollar va ayniqsa qiz farzandlar

oiladagi katta yoshdagi erkaklarning hohish va talablariga tobye ekanligi, o'z erk-irodasini mustaqil ravishda amalga oshirishi mumkin emasligi haqida tushunchalar singib kyetgan. Bundan tashqari oiladagi munosabatlarning madaniyati darajasi pastligi, ayrim iqtisodiy-ijtimoiy kamchiliklar, oila boshlig'ining ichqilikbozlikka yoki narkotik moddalarni istye'mol qilishga ruju quyish holatlari oilada zo'ravonlikni kyeltiruvchi omillardir. Oiladagi zo'ravonlikdan charchagan bolaning (ayniqsa, o'smirlardagi psixologik, fiziologik o'zgarishlar davrida) ruhiy yolg'izlikni his qilishning ortishi, nyevrozlar, stryessler, turli xastaliklar, o'z joniga qasd qilishga olib kyeladi.

Tarixan olib qaralganda bizning jamiyatimizda oiladagi zo'ravonlikka shaxsiy muammo sifatida, ya'ni, oilaga taalluqli muammo oiladan tashqariga chiqmasdan uning ichida hal qilinishi kyarak bo'lgan masala, holat dyeb hisoblangan. Ushbu tushunmovchilikni yyengib o'tish va tavsiflab byerish uchun oilaviy zo'ravonlik tushunchasi, konsyepsiyasi, shakllari va uning nafaqat ayollar va bolalarga, balki butun jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi to'g'risida ko'pgina olimlar asosli fikrlar bildirishgan.

Xulosa qilib aytganda, shaxsda suitsidal xulqning namoyon bo'lishi ayniqsa, oiladagi muhitga asoslanadi. Shu o'rinda psixolog Dyurkgyeymning «O'z-o'zini o'ldirish - bu jamiyat holatining umumiy natijasidir» dyegan fikrini, shaxsning o'z joniga qasd qilishi - bu oiladagi umumiy psixologik muhit to'liqligi va sog'lomligining bo'zilishi natijasidir dyeb to'ldirishni lozim topdik. Shuningdyek, maktab, mahalla, oila hamkorligini ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishida inqirozga byerilish ehtimoli yuqori bo'lgan oilaning farzandlariga alohida e'tibor bilan yondoshuvda hamda oiladagi psixologik iqlimning sog'lomligini mye'yorlashtirishda maktabning ham o'ziga xos o'rni mavjud dyeb o'ylaymiz.

Oiladagi muammo ota ichqilikka berilib ketganidan sodir bo'layotgan bo'lsa, bu holat shaxs xulqiga salbiy ta'sir etadi, ya'ni farzanlarda ham shu holat ko'zatiladi. Oiladagi hiyonat ham xulqni uomon tomonga o'zgartiradi. Farzandsizlik ham er yoki xotin xulqida salbiy o'zgarishlarni hosil qiladi. Ayniqsa

hozirgi kundagi eng ko'p muammolarga sabab bo'layotgan moddiy yetishmovchiliklar ko'pgina shaxslarning yomon yo'llarga kirish, o'g'rilik kabi qonunbo'zarliklarga olib kelyapti. Oilaviy muammolar shjajs ijtimoiy psixologik xulqini o'zgarishiga sabab bo'lib, hatto jinoiy ishlarga qo'l urishgacha olib kelyapti.

2.3.Talabalar tarbiyasi barkamol shaxsni shakllantirishning uzviy qismi sifatida

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avalodga o'rgatish - ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun – qoidalarini mutassil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Chunki, insonni ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedgogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta'lim – tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari qilib yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq.

Ta'lim - tarbiyadagi sifat o'zgarishlar va yuqori samaradorlik ko'proq milliy pedagogikamizning tarixiy ildizlari va zamonaviy yutuqlarini talabalar ongiga singdirishni qay darajada olib borilganligiga bog'liq bo'lib, u barkamol avlod tarbiyasida mustahkam asos bo'ladi. Shunday asoslarda ta'lim–tarbiya berish bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi innovasion jarayon bo'lib, oldingi egallagan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondoshuv texnologiyalarini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bu talablarni bajarish ta'lim - tarbiya jarayonini ilm - fan va texnika – texnologiyalarning eng so'ngi yutuqlari asosida, zamon talablarini hisobga olgan holda tashkil etish muammosi mavjudligini ta'kidlaydi.

Ta'lim - tarbiya sohasida Respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va jahon ta'limi andozlari talablarlariga mos keluvchi «Davlat ta'lim

standartlari» da davr bilan hamnafas, ya'ni «Intellectual asr»ning faol ishtirokchilarini tayyorlash ko'zda tutilgan. XXI asrning faol ishtirokchisi esa keng ma'noda ta'lim – tarbiya va ularning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar bilan bog'langan holda barkamol shaxsni voyaga yetkazishdek innovasion jarayoni o'zida mujassamlashtiradi.

Barkamol shaxs tarbiyasi tasodifan paydo bo'lgan emas. Bu inson tarbiyasi haqidagi fikrlar, g'oyalar, qarashlar, qoidalar, qonunlar asosida shakllana boshladi va hozirgacha jamiyat taraqqiyotiga mos holda takomillashib kelmoqda. Ular, asosan, qissalar, pandnomalar, qadriyatnomalar yozma yodgorliklarda, xalq og'zaki ijodida va boshqa shu kabi manbalarda asoslab berilib avloddan – avlodga o'tkazildi va keyinchalik mustaqil fan sifatida shakllanib o'z mavqeyini mustahkamlab oldi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga erishish, «Ta'lim – fan – amaliyot» integrasiyasining ta'lim tizimidagi samarasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning milliy modelidagi bosh muddao ham barkamol avlod tarbiyasi, mustaqil va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir. Bu vazifani esa pedagogika fani asoslaridan xabarsiz kishi me'yoriga yetkaza olmasligi hyech kimga sir emas.

Ushbu ma'noda bo'lajak o'qituvchilar zimmasiga qo'yiladigan yangi pedagogik tafakkurni shakllantirish vazifasi zamonaviy pedagogika fanining mazmun – mohiyatini tashkil etadi, shuningdek, jamiyat oldida milliy maktab modelini yaratish, milliy ta'lim tizimini, uning mazmunini jahon tajribasi mezonlariga mos davlat standartlari asosida yaratish vazifasini hal etish ham milliy pedagogikamizning zimmasiga yuklatiladi.

1997 – yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi.

Qonunlarga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.¹ Bizda mustaqillikning dastlabki davrida 221 ming nafar kishi qamrab olgan 442 ta o'quv yurti, shu jumladan, 209 209 ta kasb-hunar maktabi, 180 ta kasb-hunar liseyi va 53 ta biznes maktab faoliyat ko'rsatdi.

Boshlang'ich kasb-hunar ta'lim o'quv yurtlarida qariyb 20 ming o'quvchi va malakali mutaxassislar o'quvchilarga kasb-hunar sirlarini o'rgatib bormovda edi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimidaham islohotlar amalga oshirilib, bu borada 23 ta institut, 16 ta fakultet, 4 ta markaz va 14 ta malaka oshirish kurslari pedagog adrlar malakasini oshirish, ularni fan va texnika yutug'lari, ta'lim-tarbiya sohasidagi yangiliklardan bohabar etib bordi.

Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar yo'lga qo'yildi hamda bu borada muayyan yutug'lar qo'lga kiritildi.

Shunga varamay, sodir etilgan o'zgarishlar kadrlar tayrlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlay olmadi.

Mutaxassislar tayrlash hamda ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda olib borilayotgan isloh, yangilanish jarayoni talablari bilan bog'lanadi.

Majburiy to'qqiz illik ta'limga asolangan o'n bir yillik o'rta ta'lim mazmuni ilmiy jihatdan to'laqonli asoslanmadi, uo'quvchilarni kasbga yo'naltirish hamda mustaqil fikr yuritish, mehnat faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlay olmadi.

Har yili tayanch maktablarini 100 ming nafarga yaqin bitiruvchisi ishlab chiqarish sohasi yoki kasb-hunar ta'limini davom ettirish jarayoniga jalb etilmay qolaverdi.

¹ Kadrlar tayёрлаш миллий дастури // Олий таълим: меъёрий хужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарк нашриёт – манбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти. 2001. – Б. 20.

Hunar-texnika bilim yurtlaridan yangi tipdagita'lim muassasalariga o'tish ko'proq og'izda bo'lib, amalda esa ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmadi. Ularda ta'lim eskirib qolgan moddiy-texnika va o'quv-uslubiy baza negizida tashkil etildi.

Mazku o'quv yurtarida pedagog kadrlar safi tegishli qayta tayyorgarlikdan o'tmagan o'qituvchilar bilan to'ldirilib borildi. Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning o'rtacha yoshi ulg'ayib bordi. Respublika oliy o'quv yurtlarida 40 ga to'lmagan fan doktorlari bu boradagi umumiy ko'rsatkichning 0.9% i, 50 va undan katta yoshdagilar esa 79% ni tashkil etishi aniqlandi.

Fan doktori ilmiy darajasida tasdiqlanganlarning o'rtacha yoshi 50 da bolsa, fan nomzodlarining o'rtacha yoshi 36 yoshda ekanligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadi qilib belgilanadi. Ya'ni ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.¹.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

1.Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining istemolchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy – axloqiy va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib – o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta'lim: meъёрий хужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарк нашриёт – манбаа акциядорлик компанияси Бош таъхририяти. 2001. – Б. 25.

O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo'la olish uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

“Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tish kafolotlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi”.¹

2. Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlamma taraqqiy eta oladi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlamma xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarning yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlamma shakllanishi, o'zligini namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolot beradi:

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyoti – manbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bo'sh ta'xiriya. 2001. – B. 30.

-fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarning ro'yobga chiqarilishiga;

-majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik lisey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga;

-davlat grantlari yoki pulli – shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga;

-davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;

-ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart – sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

-ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab – quvvatlashga;

-sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga.¹

3. Uzlüksiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzlüksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy bosh shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadval tayyorlashi uchun zarur shart – sharoitlarni yaratadi.²

Uzlüksiz ta'limni tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi. Jumladan:

-ta'limning ustuvorligi;

-ta'limning demokratlashuvi;

-ta'limning insonparvarlashuvi;

-ta'limning ijtimoiylashuvi;

-ta'limning milliy yo'naltirilganligi;

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta'lim: meъёрий хужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарк нашриёт – манбаа акциядорлик компанияси Бош таъхирияти. 2001. – Б. 30-31.

² Ўша манба. – Б. 31.

-ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

-iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart – sharoitlar yaratish.¹

Uzluksiz ta'lim quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

-maktabgacha ta'lim;

-umumiy o'rta ta'lim;

-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

-oliy ta'lim;

- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

-kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

-maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, uni o'qishga intilish hissini uyg'otadi, muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Bu o'rinda "Xonadon bog'chasi" hamda "Bolalar bog'chasi-boshlang'ich maktab" majmualarini misol qilib keltirish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tasviriy san'at, musiqa, til va kompyuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar tashkil etilmoqda. Bu kabi harkatlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning fanlar

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta'lim: me'oriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyoti – manbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bo'sh ta'xiriyati. 2001. – B. 31-32.

asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o'quvchilarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga egaliklarini belgilaydi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi maktab jamoasi va otionalar hamkorligida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari rahbarligida amalga oshiriladi.

O'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi sanalib, umumiy o'rta ta'lim negizida tashkil etiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ikki muhim yo'nalishi bo'lgan-akademik lisey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik lisey o'quvchilarining imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Akademik liseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Akademik liseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari esa o'quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlangan yo'nalishlar bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb sirlarini egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir

yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Kasb-hunar kollejlari yangi tipdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tanlanganligi, shuningdek, o'quv jarayonining zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi alohida e'tiborga loyiq.

Akademik lisey va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Ushbu diplomlar asosida bitiruvchilar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritadilar.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asolanib, ikki bosqichda (bakalavriyat hamda magistratura) tashkil etilib, mutaxassislar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Bakalavriyat – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizidagi ta'lim bo'lib, magistarturadagi tahsil yakuniy klassifikasion davlat attestasiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U aspiranturaga kirish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi:

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan olib borilgan yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi hamda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomga ega bo'lish huquqini beradi.

Har ikki (aspirantura, doktorantura) darajada ham maqsad muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy toifali ilmiy – pedagogik kadrlarni shakllantirishdan iborat.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonida asosiy e'tibor mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu muassasa tinglovchilari o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladilar.

Maktabdan tashqari ta'lim – maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy–estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yilib, bolalar xamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarni qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi.

4. Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qoquniyatlari to'g'risidagi

yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayoninig ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasini yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zahirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeyi va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi".¹

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan: "ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi".²

5. Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy- texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

"Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijasida kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi".³

"Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarini va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab – quvvatlashda bevosita ishtirok etadi".⁴

¹ Баркамол авлод орзуси // Тузувчилар Ш.Қурбонов, Ҳ.Саидов, Р.Аҳлиддинов. – Тошкент: Шарқ нашриёти – манбаа концерни Бош таҳририяти, 1999. – Б. 172.

² Ўша манба – Б. 171.

³ Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Олий таълим: меъёрий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарқ нашриёт – манбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2001. – Б. 42.

⁴ Баркамол авлод орзуси // Тузувчилар Ш.Қурбонов, Ҳ.Саидов, Р.Аҳлиддинов. – Тошкент: Шарқ нашриёти – манбаа концерни Бош таҳририяти, 1999. – Б. 173-174.

Avvalalari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi is'temolchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgaradi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab yetishtirish yo'lida uzluksiz ta'lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy – texnik jihatdan qo'llab – quvvatlash majbariyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Milliy model Konsepsiyasining mazmuni o'zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma'naviy – axloqiy an'analari bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan “ma'rifatli inson” tushunchasi qo'llanib kelingan bo'lib, u o'zida keng ma'noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma'rifatli bo'lish o'zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustivor o'rin tutuvchi omil sanaladi. Ma'rifatchilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo'lish emas, ayni paytda chuqur ma'naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati o'zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog'lanib ketgan.

XULOSA

Ta'lim-tarbiya sohasida Respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va jahon ta'limi andozlari talablarlariga mos keluvchi «Davlat ta'lim standartlari» da davr bilan hamnafas, ya'ni «Intellectual asr»ning faol ishtirokchilarini tayyorlash ko'zda tutilgan. XXI asrning faol ishtirokchisi esa keng ma'noda ta'lim – tarbiya va ularning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar bilan bog'langan holda barkamol shaxsni voyaga yetkazishdek innovasion jarayonni o'zida mujassamlashtiradi.

Barkamol shaxs tarbiyasi tasodifan paydo bo'lgan emas. Bu inson tarbiyasi haqidagi fikrlar, g'oyalar, qarashlar, qoidalar, qonunlar asosida shakllana boshladi va hozirgacha jamiyat taraqqiyotiga mos holda takomillashib kelmoqda. Ular, asosan, qissalar, pandnomalar, qadriyatnomalar yozma yodgorliklarda, xalq og'zaki ijodida va boshqa shu kabi manbalarda asoslab berilib avloddan – avlodga o'tkazildi va keyinchalik mustaqil fan sifatida shakllanib o'z mavqeyini mustahkamlab oldi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga erishish, «Ta'lim – fan – amaliyot» integrasiyasining ta'lim tizimidagi samarasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning milliy modelidagi bosh muddao ham barkamol avlod tarbiyasi, mustaqil va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir. Bu vazifani esa pedagogika fani asoslaridan xabarsiz kishi me'yoriga yetkaza olmasligi hyech kimga sir emas.

Ushbu ma'noda bo'lajak o'qituvchilar zimmasiga qo'yiladigan yangi pedagogik tafakkurni shakllantirish vazifasi zamonaviy pedagogika fanining mazmun – mohiyatini tashkil etadi, shuningdek, jamiyat oldida milliy maktab modelini yaratish, milliy ta'lim tizimini, uning mazmunini jahon tajribasi mezonlariga mos davlat standartlari asosida yaratish vazifasini hal etish ham milliy pedagogikamizning zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasidagi olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoni yoshlarning har tomonlama yuksalishini ta'minlaydi. Hozirda yoshlarga yaratilgan keng imkoniyatlar ularning har jabhada ilg'or bo'lishini ta'minlaydi. Yoshlar hayoti, ularning psixologik yuksalishiga hech kim befarq emas. Yoshlarning ijtimoiy ruhiyati borasida bir qator manbalarni va hozirgi kun yoshlarining ijtimoiy ruhiyati o'rganildi. Yoshlar kamoloti ularning ruhiyati bilan bog'liq. Ruhiyati sog'lom yoshlarda sog'lom fikr, sog'lom aql, keng dunyoqarash shakllanadi. Bunday yoshlarda hayotga teran qarash shakllanadi. Kuzatishlarimizdan kelib chiqib shu narsa ma'lum bo'ldiki, hozirgi kun yoshlarining ko'pchiligida ijtimoiy ong butunlay boshqa narsalarga qaratilgan. Yoshlarning hayotga bo'lgan qiziqishining sustligi, ular xarakter xususiyatlaridagi salbiy, ya'ni o'zlari boshqara olmaslik darajasidagi salbiy xususiyatlarning ko'pligi, ayniqsa ta'limga bo'lgan munosabatning passivligi shu bilan birga irodasizlik, dangasalik kabi xususiyatlarning yaqqol namoyon bo'lishi ko'zga tashlanmoqda. Bunga jadal taraqqiy etishning ham ta'siri bo'lmoqda. Texnika taraqqiyoti buning yaqqol dalili. Internet tarmoqlarining shiddat bilan o'sishi yoshlar qiziqishini yanada rivojlantirmoqda. Internetning turli tarmoqlaridan yoshlarimiz turlicha ehtiyojlarda foydalanmoqdalar. Ko'pgina tarmoqlar yoshlar ongini zaharlab, turli nojo'ya hatti-harakatlarni amalga oshirishga undamoqda. Bunda yoshlar ruhiyatining har tomonlama rivojlangan bo'lishi muhim. Birgina irodaviy sifatlarning yetishmasligi natijasida yigit-qizlar o'zlarini boshqara olmayaptilar. Talaba yoshlarning ijtimoiy ruhiyatini o'rganishning yana bir maqsadi, ularning tanlagan yo'nalishlarini mustahkam o'zlashtirishlarini shu bilan birga kelajakda yaxshi mutaxassis bo'lishlarini ta'minlaydi. Zera yoshlar tanlagan yo'llaridan og'ishmay kelajak sari olg'a qadam tashlashlari kerak. Yoshlarning salbiy jihatlarini yo'qotib, ijobiy jihatlarini rivojlantirish bugungi kun talabi, chunki yoshlar bizning kelajagimiz.

TAKLIFLAR

Bugungi kun talaba yoshlarining ijtimoiy ruhiyati quyidagi faoliyatni tashkil etish asosida kechadi. Ushbu faoliyatni yanada takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik.

- talaba yoshlar tomonidan hayotiy tushunchalarning o'zlashtirilishi va bajarilishini uzluksiz, doimiy nazorat qilib borish.
- talaba yoshlarga muntazam suratda ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini tushuntirib borish.
- talaba yoshlar orasida ongli intizom mezonlaridan biri bo'lgan intizomli xulq, xarakter va iroda sifatlarini hosil qilish uchun mashq qildirish va o'rgatish.
- Ijtimoiy-axloqiy tushunchalar mohiyatini talaba yoshlar ongiga singdirish, ongli intizom tushunchasini qaror toptirish.
- Talaba yoshlar tomonidan ijtimoiy burch mohiyatining o'zlashtirilishiga erishish.
- Talaba yoshlarda ijtimoiy burchni ado etish jarayonida ongli va ixtiyoriy faoliyatini tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
- Talaba yoshlarda kundalik rejim asosida hayotiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmasini hosil qilish.
- Bugungi kun talaba yoshlarning ijtimoiy muhitda sodir bo'layotgan turli ta'sirlarga berilmaslik holatlarini nazorat qilish.
- Yoshlarning o'z ruhiyatlarini boshqara olishlarini nazorat qilish.
- Turli axborot tizimlaridan unumli foydalanishlarini tashkil qilish va internetda o'zlariga kerakli bo'lgan saytlarda ishlashlarini nazorat qilish.
- Talaba yoshlarda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish (mehnat va dam olish faoliyati, aqliy va jismoniy mehnat faoliyati o'rtasida o'zaro mutanosiblikning qaror topishiga erishish) ko'nikma va malakalarini hosil qilishga erishish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2010. - 56 b.
- 2.O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997.
- 3.O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Toshkent, 1997.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, Oliy ta'limning meyoriy hujjatlari. Toshkent, 2001. – 140 b.
- 5.2004–2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummiy dasturi //Xalq so'zi g., 2004 yil, yanvar
- 6.Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. T., «O'zbekiston», 1993 y. 7.Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston. 1998 – B. 429
- 8.Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997.
- 9.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.
- 10.Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimizdir //Xalq so'zi g., 2010 yil, yanvar.
- 11.Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2010. - 54 b
- 12.Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. TAT. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. - 366 b.
- 13.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: O'zbekiston, 2008. - 174 b.
- 14.Zunnunov A., Xayrullayev M. Pedagogika tarixi.– T.: Sharq, 2000. - 240 b.
- 15.G'aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatkulov R. Pedagogika. Toshkent, 2005.-176 b.

16. Pedagogika. Darslik. R. Mavlonov taxriri ostida. - T.: O'qituvchi, 2001. - 321b.
17. Hasanboyeva O.U., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. - T.: O'qituvchi, 1997. - 248 b.
18. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Alqarov I., Usmanov N.O'. Pedagogika. 19. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. - 482 b.
20. Abdullayeva Sh. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.
21. Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar Sh. Qurbonov, H. Saidov, R. Ahliddinov. - Toshkent: Sharq nashriyoti - manbaa konserni Bosh tahririyati, 1999. - B. 172.
22. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: «O'qituvchi», 1997, 272 bet.
23. Munavvarov A. Pedagogika (o'quv qo'llanma). - T. O'qituvchi, 1996. - 215
24. Farsaxanova D.R. Talabalarga ma'naviy axloqiy tarbiya berish texnologiyasi (o'quv uslubiy qshllanma). Toshkent, "Fan va texnologiyalar", 2009 - 104b
25. Olimov Q.T., Nurboyev R.X., Eshpo'latov M.R. Oliy ta'lim darsligi modeli, funksiyalari va unga qo'yilgan talablar. - Toshkent: 2009. - 321b.
26. Mudrik A. V. "Sosialnaya pedagogika". - M. 2003. - 234s.
27. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. II jild, T.: «O'qituvchi», 1999, 147 bet.¹
28. Pedagogik atamalar lug'ati. - Toshkent, Fan. 2008. - 231 b.
29. Ziyomhammadov B. Pedagogika. Toshkent: Turon - Iqbol, 2006, - 112 b.
30. Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida. - T.: «O'qituvchi», 1991. 324b.
31. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent, 1996. - 342 b.
32. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 - 234 b.
33. Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. - T.: Fan, 2001. - 19 b.

34. Alikulova M.M. Bo'lajak o'qituvchilarni ekologik tarbiyalash. Toshkent, "Fan", 2009-128 b.
35. Ahmedjonova A. va boshq. Komil inson davr talabi. T. «Yangi asr avlodi», 2004, 150 bet.
36. Bozorov O., Shodiyev D. O'rta Osiyo tasavvufi va axloqiy qadriyatlar. Samarqand: Zarafshon, 1992.- 123 b.
37. Irisov A. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat. Ibratli so'zlar. – T.: Fan, 1993. - 24 b.
38. Musurmanova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 192 b.
39. Muxamedov G'.I., To'raqulov X.A. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy nazariy asoslari. Toshkent, "Fan", 2004 - 230 b.
40. Muhammad Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – T.: «Fan», 1983. – B. 59.
41. Pedagogik atamalar lug'ati. Toshkent. "Fan", 208 – 231 b.
42. To'raqulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitini yaratishning metodologik asoslari. Toshkent, 2010 – 242 b.
43. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri /Tuzuvchi: M.Mahmudov, ma'sul muhar. M.Xayrullayev. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. - 223 b.
44. G'aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatkulov R. Pedagogika. Toshkent, 2005.-176 b.
45. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Xaydarov M, Xasanbayeva O, Usmanov N.O'. Pedagogika fanidan izohli lug'at. Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. - 672 b.
46. To'raqulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy – metodik ta'minoti. – Toshkent: ZMKHTTKMO va O'QTI, 2010. – 156 b.

47.Uzluksiz ta'lim jarayonini takomillashtirishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2004. -21-23 b.

48.Umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: Akadem-xizmat, 2006. - 40-43 b.

49.Abdullayeva T. Milliy iftixor hissini tarbiyalash //Boshlang'ich ta'lim., 2002. 4-son. – 12–15 b.

50.Adizov B.R. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish //Mahorat ko'zgusi j., 2000. 1-son. – 11–15 b

51.Jabborov U. Sohibqiron davrida adolat // “Milliy tiklanish” gazetasi, 2007 yil 11 aprel.

52.Jo'rayev R.X., Safarova R.A., Ibragimov X.I. Pedagogika fani Konsepsiyasi //Xalq ta'limi j., 2004. 5-son. - 8–33 b.

53.Yo'ldoshev J.F., Shirinov M, Najmiddinova M. Ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimiga innovation yondoshuv.// Tarbiya. Toshkent, 2010, 2- son B. 19 - 25.

54.Uvatov U. O'zbekiston buyuk allomalar yurti. “Ma'rifat” gazetasi, 2005, 1 oktyabr.

55.Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi //Ta'lim taraqqiyoti j., 1999. 7-maxsus son. – 480 b.

56.Alikulova M.M. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. JDPI axborot resurs markazi 2011.

Internet saytlari

<http://www.nuu.uz>

<http://www.istedod.uz>

<http://www.academy.uz>